



UNIVERSAL  
CONFERENCE

---

---

# CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD

---

---

UNIVERSALCONFERENCE.US

CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN  
THE MODERN WORLD

VOLUME-1, ISSUE-2

**Editor in Chief**

**Dr. Rajeev Ojha** - Interdisciplinary Research in Basic Sciences, Jamia Millia Islamia, New Delhi -110025, India

**Editorial Team**

**Sunita Sarawagi** - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

**Dr Manjunatha LH** - Professor, REVA University, INDIA

**Asish Bera** - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

**Dr Sunildro LS Akoijam** - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

**Madan Mohan Singh** - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

**Dr. Anupam Singh** - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

**Dr. Sargam Bahl Walia** - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

**Narayan Pradhan** - Indian Association for the Cultivation of Science

**Ashok Kumar** - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology. Hamirpur, India.

**Anjali Pal** - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

**Rajnish Joshi** - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

**Mukul Kumar** - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd. (India)

**Prof. Kuruvilla Joseph** - Indian Institute of Space Science and Technology (IIST)

**Prof. Yogesh C. Sharma** - D.Sc., FRSC, FBRS, FIAPS; FISEES, Department of Chemistry, Indian Institute of Technology

**Professor Indra Mani Mishra** - Indian Institute of Technology (Indian School of Mines), Dhanbad; Formerly at India

## ПОЛИМЕР ИОНИТЛАР СИНТЕЗИ ВА ТАДҚИҚИ

**М. Холлиева, Ф. Асадова - Бухоро муҳандислик технология  
институти мустақил тадқиқотчиси**

**А. Олимов, Н. Йўлдошева - Бухоро муҳандислик технология  
институти иккинчи босқич талабаси**

**Ф. Остонов - Бухоро муҳандислик технология институти кимё  
кафедраси доценти**

Саноат иситиш тизимидаги сувларни юмшатишда, гидрометалургияда ҳосил бўлган сувларни тозалашда ҳамда ичимлик сувларини юмшатишда катионитлар, анионитлар ва амфолитларнинг аҳамияти катта. Сувни юмшатишда асосан физикавий, кимёвий, физик-кимёвий усуллар билан ҳам амалга оширилади. Физикавий усулда сув қайнатиб ёки музлатиб тозаланади. Кимёвий усулда турли хил кимёвий реагентлар ёрдамида сувдаги ортикча ионлар чўкма кўринишига ўтказилади ва тозаланади. Физик-кимёвий усулда эса ион алмашилиш хусусиятига эга бўлган катионитлар, анионитлар ва амфолитлар қўлланади [1-10].

Ионитларнинг ион алмашилиш сиғими бир қатор омилларга боғлиқ бўлиб буларга хусусан ионит таркибидаги функционал гуруҳларнинг табиати, миқдори, ва алмишинадиган ионнинг табиати, алмашилиш шароитларини киритиш мумкин [11-15]. Ионитлар синтез қилишда алюмосиликатлар: глоуконит, сеолит, пермутитлардан ва органик полимерлардан фойдаланилади. Полимер ионитлар ковалент боғлар ҳисобига ҳосил бўлганлиги сабабли турли эритувчиларга эримаслиги ва мономерлар таркибидаги ион аламлиниш хусусиятига эга бўлган функционал гуруҳларнинг кўп марта такрорланганлиги полимер ионитларга устунлик бериши аниқланган. Бундан ташқари ионитлар синтезида бифункционал турли мономерлардан фойдаланиб, ҳам катион ҳам анион хусусиятга эга сополимер ионитлар синтези учун ҳам жуда қулайдир [16-24].

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда N-винилморфолин (N-ВМ) ва кротон алдегиднинг (КА) иштирокида радикал полимерланиш асосида сополимер олинди. Олинган сополимер модда натрий гидросульфиднинг тўйинган эритмаси билан қўшиб қиздирилди. Сўнг стакан совутилди ва бир канча вақтдан сўнг кукунсимон (қўнғир) чўкма олинди.

Турли хил нисбатларда олинган сулфокатионитнинг статик алмашинув сифими аниқ методика бўйича аниқланди [4, 25-28].

Олиб борилган тадқиқот шуни кўрсатдики 70 °С температурада N-ВМ ва КА ланинг сополмерланиш рекакция унуми йетмиш фоиз эканлиги аниқланди.

Синтез қилинган сополимер иштирокида олинган ионитнинг статик алмашинув сифими ўрганилди. Бунда статик алмашинув сифими 5,6-6,0 эканлиги аниқланди.

### Литература

1. Ostonov F.I., Akhmedov V.N., Olimov B.B. Preparation of hybrid composites by sol-gel method and analysis of its properties/«Science in the environment of rapid changes» Proceedings of the 1st International Scientific and Practical Conference. Brussels, Belgium. 2022 y.-P. 256-259.

2. Остонов Ф.И., Ахмедов В.Н. Производство новых видов гибридных композитов // Научный вестник Наманганского государственного университета. 2021 №9. С. 44-49.

3. Кокотов Ю.А. Иониты и ионный обмен.-Л.: Химия, 1980.-С 71-74.

4. Клайн Г., Аналитическая химия полимеров, т. 1, Изд. иностр. лит., "1963, стр. 487.

5. Ostonov Firuz, Akhmedov Vohid SYNTHESIS OF IONITES BASED ON CREMNISOLE // Universum: технические науки. 2022. №4-13 (97).

6. Ostonov Firuz, Akhmedov Vokhid SYNTHESIS AND PROPERTIES OF COMPLEX FORMING IONITES // Universum: технические науки. 2023. №2-6 (107).

7. Остонов Ф.И., Ахмедов В.Н. Гибридные композиты на основе морфолина. // Меж. Конф.-Руминия, Бухарест. 20.11.2020 г. С. 38-42.

8. Ахмедов В. Н., Назаров Ш. К. Электронная структура и квантово-химические расчёты виниловых эфиров фенолов.

9. Olimov B. B., Akhmedov V. N., Gafurova G. A. Application of derivatives of diatomic phenols as corrosion inhibitors //Euro Asian Conference on Analytical Research (Germany. – 2021. – Т. 15. – С. 136-138.

10. Olimov B., Akhmedov V., Gafurova G. Production and use of corrosion inhibitors on the basis of two-atomic phenols and local raw materials //environment. – Т. 7. – С. 11.

11. Олимов Б. Б., Ахмедов В. Н. Винацетилен асосида фенолларнинг винил эфирлари синтези.“ //Замонавий ишлаб чиқаришнинг муҳандислик ва технологик муаммоларини инновацион ечимлари” Халқаро илмий анжуман материаллари Бухоро. – 2019. – С. 37-39.

12. Olimov B. B., Yoldosheva N. J. Gravimetric study of the mechanism of action of corrosion inhibitors used in the oil and gas industry //Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». Выпуск. – №. 19.

13. Olimov B. B., Ahmedov V. N., Hayitov S. Ikki atomli fenollar asosida vinilli efirlarni olish usullari //Fan va texnologiyalar taraqqiyoti ilmiy-texnikaviy jurnal. – 2020. – №. 1.

14. Олимов Б. Б., Гафурова Г. А., Кудратов О. Х. Production and properties of corrosion inhibitors in the oil and gas industry //Universum: химия и биология: электрон. научн. журн. – 2022. – Т. 2. – С. 92.

15. Olimov, B. B., M. I. Sadiqova, and I. A. Beshimov. "Technology of obtaining effective corrosion inhibitors in the oil and gas industry." Universum: технические науки: электрон. научн. журн 1 (2022): 94.

16. Ахмедов В., Олимов Б., Гафурова Г. Виналацетилен иштирокида винил эфирлар олиш //НамДУ илмий ахборотномаси-Научный вестник НамГУ. – 2021. – С. 37-43.

17. Shomurod N., Vokhid A., Bobir O. Preliminary quantum chemical analysis of synthesized monomers with the participation of vinylacetylene //International journal of progressive sciences and technologies. – 2020. – Т. 22. – №. 2. – С. 50-56.

18. Паноев Э. Р., Дустов Х. Б., Ахмедов В. Н. Проблемы коррозии в кислых компонентных системах и способы ее уменьшения //Universum: технические науки. – 2021. – №. 12-5 (93). – С. 47-50.

19. Olimov B., Akhmedov V. The effect of reaction duration and catalyst on the synthesis of arylvinyl esters //Збірник наукових праць ЛОГОС. – 2020. – С. 33-37.

20. Bahodirovich O. B. et al. Synthesis of Resorcinol Vinyl Ether in the Monoposition, Influence of the Catalyst, Temperature and Solvent on the Reaction Yield //JournalNX. – 2020. – С. 44-51.

21. Ахмедов В. Н., Олимов Б. Б. Способ получения виниловых эфиров на основе виналацетилена //Gaydar Aliyevning. – 2020. – Т. 97.

22. Назаров Ш. и др. Синтез мономеров при участии виналацетилена из одноатомных фенолов содержащих ариловую группу //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 11-2 (77). – С. 11-15.

23. Ганиев Б. Ш., Олимов Б. Б. Влияние температуры синтеза на абсорбционные свойства сополимерных композитов содержащих

навбахорского бентонита //Химия и химическая технология: достижения и перспективы. – 2018. – С. 304.1-304.2.

24. Olimov B. B., Akhmedov V. N., Gafurova G. A. Application of derivatives of diatomic phenols as corrosion inhibitors. Euro Asian Conference on Analytical Research (Germany).

25. Sh, Ganiev B. "Olimov BB influence of the temperature of synthesis on the absorption properties of copolymer composites containing navbahor bentonite." chemistry and chemical technology: achievements and prospects.-2018.-S: 304-1.

26. Nazarov S. K., Olimov B. B., Akhmedov V. N. Electronic structure and quantum-chemical calculations of vinyl esters of phenols //Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. – 2020. – №. 3-4. – С. 46-51.

27. Остонов Ф.И., Ахмедов В.Н. Винилморфолин иштирокида гибрид полимер композит олиш //Рес. Конф. Бухра. 4-5 декабр. 2020 г. С.406-406.

28. Ахмедов В.Н., Остонов Ф.И., Дўстов Ҳ.Б. Получение модифицированных акриловых соединений на основе соединений кремния // Развитие науки и технологий. 2021. №2. С. 24-30.

## KIMYOVIY REAKSIYALAR, ULARNING TEZLIGI VA KIMYOVIY MUVOZANAT

O.U.Nurova

Buxoro davlat universiteti, dotsenti, t.f.n.

**Annotatsiya.** Maqolada kimyoviy reaksiyalar, ularning bir turdagi kimyoviy moddalarning tarkibi va xossalari jihatidan farq qiladigan ikkinchi turdagi moddalarga aylanishi, ularni kimyoviy tenglama bilan ifodalash, gomogen reaksiyalarning tezligi vaqt birligi ichida reaksiyaga kirishgan yoki reaksiya natijasida hosil bo'lgan moddaning hajm biriligidagi miqdorining o'lchanishi va mavzuni yoritishga oid ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kimyoviy реакция, химёвий мувозанат, gomogen, kimyoviy modda, kimyoviy o'zgarish, energiyadan foydalanish, atom, ion radiuslari, ionlanish energiyasi, qonuniyat, formula

**Аннотация.** В статье приводятся сведения о химических реакциях, их превращении в вещества второго типа, отличающиеся составом и свойствами одного вида химикатов, их представлении химическим уравнением, измерении скорости гомогенных реакций в единицу времени или количества вещества, образующегося в результате реакции, в единицу объема и освещении темы.

**Ключевые слова:** химическая реакция, химическое равновесие, однородность, химическое вещество, химическое изменение, использование энергии, атом, ионные радиусы, энергия ионизации, закон, формула

**Annotation.** The article provides data on chemical reactions, their transformation into a second type of substance that differs in composition and properties of one type of chemical, their representation by a chemical equation, the measurement of the amount of a substance that reacts within a unit of time or is formed by a reaction, and the illumination of the subject.

**Keywords:** chemical reaction, chemical equilibrium, homogeneity, chemical substance, chemical change, energy use, atom, ion radii, ionization energy, law, formula.

Kimyoviy reaksiyalar - bir turdagi kimyoviy moddalarning tarkibi va xossalari jihatidan farq qiladigan ikkinchi turdagi moddalarga aylanish jarayoni bo'lib, ularni kimyoviy tenglama bilan ifodalash mumkin.

Masalan, sulfat kislotaga ruh ta'sir ettirilganda ruh sulfat va vodorod gazi hosil bo'ladi:  $H_2SO_4 + Zn = ZnSO_4 + H_2T$ . K. r. da atomlar o'zgarmaydi, bir birikmadan

ikkinchisiga o'tadi, xolos. Kimyoviy jarayonlarda to'g'ri (qaytmas) reaksiya (mas, vodorod yodidning vodorod va yoddan hosil bo'lishi:  $N_2+12 \rightarrow 2N_1$ ) bilan bir qatorda, qaytar reaksiya (mas, vodorod yodidning parchalanishi:  $2HI \rightleftharpoons H_2+I_2$ ) ham sodir bo'ladi.

Kimyoviy reaksiyalarda ishtirok etadigan elementlarning oksidlanish darajadari (valentliklari) o'zgarsa, bunday reaksiyalar oksidlanish-kaytarilish reaksiyalari deyiladi. Kimyoviy reaksiyalarda molekular, atomlar va ionlar ishtirok etishi mumkin. Shunga ko'ra, reaksiyalar uchga bo'linadi: oddiy, ionli va radikal reaksiyalar.

Kimyoviy reaksiyalar har-xil tezliklarda boradi. Ulardan ba'zilar sekundning bir necha ulushlari ichida batamom tugaydi, boshqalari minutlar, soatlar, kunlar davomida amalga oshadi; shunday reaksiyalar ham ma'lumki, ularning borishi uchun bir necha yil va o'n yillar kerak bo'ladi. Bitta reaksiyaning o'zi bir sharoitda, masalan, yuqori haroratda tez, boshqa sharoitda masalan, sovuqda sekin borishi mumkin. Bunda bir xil reaksiyaning tezligi orasidagi farq juda katta bo'lishi mumkin.


Gomogen sistemada boradigan (gomogen reaksiyalar) va geterogen sistemada boradigan (geterogen reaksiyalar) reaksiyalar bir-birlaridan farq qiladi. Modda yoki moddalar yig'indisiga kimyoda sistema deyiladi. Sistemalar gomogen va geterogen sistemalarga bo'linadi.

Bir xil fazadan tashkil topgan sistema gomogen, har-xil sistemalardan tashkil topgan sistemaga geterogen sistema deb ataladi. Sistemaning boshqa qismlardan chegara sirtlari bilan ajralib turuvchi qismiga faza deb ataladi. Gomogen sistemaga misol qilib hohlagan gazlar aralashmasini, masalan, azot bilan kislorod aralashmasini, bir necha moddalarning bitta erituvchidagi eritmasini, masalan, natriy xlorid, magniy sulfat, azot va kislorodning suvdagi eritmasini olish mumkin. Ikkala holda ham sistema bir xil fazalardan tashkil topgan. Geterogen sistemaga quyidagilarni misol qilib olish mumkin: muzli suv, cho'kmasi bo'lgan to'yingan eritma va hokazo.

Gomogen sistemada reaksiya sistemaning butun hajmi bo'yicha ketadi. Masalan, sulfat kislotaga natriy tiosulfat eritmasi aralashtirilsa, butun hajmi bo'yicha oltingugurt hosil bo'lib, eritmaning loyqalanishi kuzatiladi:



Agar reaksiya geterogen sistemada borsa, sistemani tashkil etuvchi fazalari sirtidagina reaksiya amalga oshadi. Masalan, metallning kislotada erishi:



Bu reaksiya faqat metall sirtida boradi, chunki reaksiyaga kirishuvchi ikkala

modda shu sirtga bir-biri bilan to'qnashadi. Gomogen reaksiya tezligi geterogen reaksiya tezligidan farq qiladi va ular har xil aniqlanadi.

Gomogen reaksiyalarning tezligi vaqt birligi ichida reaksiyaga kirishgan yoki reaksiya natijasida hosil bo'lgan moddaning hajm biriligidagi miqdori bilan o'lchanadi. Geterogen reaksiyaning tezligi esa vaqt birligi ichida faza sirtining yuza birligida reaksiyaga kirishgan yoki reaksiyada hosil bo'lgan moddaning miqdori bilan o'lchanadi. Gomogen reaksiyaning tezligi matematik shaklda quyidagicha ifodalanadi:

$$v_{gomog} = \frac{\Delta n}{\Delta t}$$

Geterogen reaksiyaning tezligi

$$v_{geterog} = \frac{\Delta n}{S\Delta t}$$

shaklda ifodalanadi.

$v_{gomog}$  – gomogen reaksiyaning tezligi;  $v_{geterog}$  – geterogen reaksiyaning tezligi;  $n$  – reaksiyada hosil bo'luvchi moddaning mol soni;  $V$  – sistemaning hajmi;  $t$  – vaqt;  $S$  – reaksiya boradigan yuza,  $\Delta$  – ortish belgisi ( $\Delta n = n_2 - n_1$ ,  $\Delta t = t_2 - t_1$ ).

Gomogen reaksiya tezligi ifodasini soddalashtirish mumkin. Modda miqdori ( $n$ ) ning hajmi ( $V$ ) ga nisbati ayni moddaning molyar konsentratsiyasi ( $C$ ) ga teng bo'ladi:

$$\frac{n}{V} = C \quad \text{bundan} \quad \frac{\Delta n}{V} = \Delta C$$

demak

$$v_{gomog} = \frac{\Delta C}{\Delta t}$$

Gomogen sistemadagi reaksiya tezligi reaksiyaga kirishuvchi yoki reaksiya natijasida hosil bo'luvchi moddalar konsentratsiyalarining vaqt birligi ichida o'zgarishi bilan o'lchanadi.

Kimyo sanoatida moddalarni ishlab chikarish apparatlarining o'lchami va unumdorligi, hosil qilinadigan mahsulot miqdori reaksiyaning tezligiga bog'liq. Kimyoviy reaksiyalardan amalda foydalanilganda reaksiyalarning turli sharoitlarda qanday tezlikda borishi, reaksiyaning istalgan tezligiga erishish uchun sharoitni qanday o'zgartirish kerakligini bilish muhimdir. Kimyoning reaksiyalar tezligini o'rganuvchi bo'limi kimyoviy kinetika deb ataladi. Kimyoviy reaksiyaning tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalarning tabiatiga, ularning konsentratsiyalariga, haroratga, katalizator va boshqa faktorlarga bog'liq.

Reaksiya tezligiga reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyalari

katta ta'sir ko'rsatadi. Dastlabki moddalarning zarrachalari (molekulalari, ionlari) kimyoviy o'zaro ta'sirlashishi uchun ularning bir-birlari bilan to'qnashishlari zarur; zarrachalar bir-biriga shunchalik yaqinlashishi kerakki, atomlarning biri ikkinchi atomning elektr maydoni ta'sirida bo'lishi kerak. Shundagina elektronlarning o'tishi va atomlarning qayta guruhlanishi yuz beradi va natijada yangi moddalarning molekulalari, ya'ni reaksiya mahsulotlari hosil bo'ladi. Bunda reaksiyaning tezligi reaksiyaga kirishuvchi moddalar molekulalarining to'qnashishi soniga proporsionaldir. To'qnashishlar soni dastlabki moddalarning konsentratsiyasiga bog'liq. Demak, konsentratsiya qanchalik katta bo'lsa, to'qnashishlar soni shunchalik ko'p bo'ladi, kimyoviy reaksiya ham shunchalik tez boradi. Dastlabki moddalar konsentratsiyalarining kimyoviy reaksiya tezligiga ta'sirini ifodalovchi qonun 1867 yilda norvegiyalik ikki olim K.Guldberg va P.Vaage tomonidan taklif etilgan bo'lib, massalar ta'siri qonuni deb ataladi.

Doimiy haroratda kimyoviy reaksiya tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyalari ko'paytmasiga to'g'ri proporsionaldir.



reaksiyaning tezligi bu qonunga muvofiq quyidagicha ifodalanadi:

$$v = K[A] \cdot [B]$$

$v$  – reaksiyaning tezligi;  $[A], [B]$  – reaksiyaga kirishayotgan moddaning mol/l bilan ifodalangan konsentratsiyasi;  $K$  – tezlik konstantasi.

Tezlik konstantasi reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyalari birga teng bo'lgandagi tezlik ya'ni solishtirma tezlikdir.  $K$  ning qiymati reaksiyaga kirishayotgan moddalarning tabiatiga, haroratga va katalizatorlarga bog'liq bo'lib, reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyasiga bog'liq emas.

Agar reaksiyaga kirishayotgan moddalarning stexiometrik koeffitsiyentlari birdan yuqori songa teng bo'lsa, bu sonlar reaksiya tezligining matematik ifodasidagi konsentratsiyalar darajasiga qo'yiladi, masalan



reaksiya uchun massalar ta'siri qonuni quyidagicha ifodalanadi:

$$v = k[A]^a \cdot [B]^b$$


Massalar ta'siri qonunini azot (II)-oksidning oksidlanish reaksiyasi uchun qo'llab ko'raylik:



shu reaksiya tezligining matematik ifodasi:

$$v = k[NO]^2 \cdot [O_2]$$

Geterogen reaksiyalarda massalar ta'siri qonuni tenglamasiga faqat gaz yoki suyuq fazalarda bo'lgan moddalarning konsentratsiyalari kiritiladi. Qattiq fazadagi moddalarning konsentratsiyalari doimiy qiymatga ega bo'ladi va shuning uchun tezlik konstantasiga kiradi. Ko'mirning yonish reaksiyasi:



uchun massalar ta'siri qonuni quyidagicha yoziladi:

$$v = k' \cdot \text{const}[O_2] = k \cdot [O_2]$$

bundan

$$k = k' \cdot \text{const}$$

Kimyoviy reaksiyaning borishi uchun zarrachalar o'zaro to'qnashishi kerak. Lekin har qaysi to'qnashish natijasida reaksiya boravermaydi. Reaksiyaning borishi, ya'ni yangi molekullarning hosil bo'lishi uchun avval dastlabki modda molekullari atomlari orasidagi bog'larni uzish yoki susaytirish kerak. Bunga ma'lum miqdorda energiya sarf etiladi. Agar to'qnashuvchi molekullar bunday energiyaga ega bo'lmasa, to'qnashish effektiv bo'lmaydi yangi molekula hosil bo'lmaydi. Agar to'qnashuv energiyasi bog'lanishlarni bo'shashtirish yoki uzishga yetarli bo'lsa, atomlar qayta guruhlanishi va yangi modda molekullari hosil bo'lishi mumkin. Molekullarning to'qnashishi natijasida yangi modda hosil bo'lishi uchun zarur bo'lgan qo'shimcha energiya ayni reaksiyaning aktivlanish energiyasi deb ataladi. Aktivlanish energiyasi kJ/mol bilan ifodalanadi. Aktivlanish energiyasiga ega bo'lgan molekullar aktiv molekullar deb yuritiladi.

Harorat ko'tarilishi bilan aktiv molekullar soni ortadi va reaksiya tezligi ortadi. Bu ortish reaksiya tezligining harorat koeffitsiyenti bilan xarakterlanadi. Harorat har 10 °C ga o'zgarganda reaksiya tezligining necha marta o'zgarishini ko'rsatuvchi son reaksiya tezligining harorat koeffitsiyenti deb ataladi. Harorat o'zgarishi bilan reaksiyaning tezligi quyidagicha o'zgaradi.


$$v_t = \gamma \frac{t_2^0 - t_1^0}{10}$$

$v_2$  – reaksiyaning  $t_2^0$  – dagi tezligi;  $\gamma$  – reaksiya tezligining harorat koeffitsiyenti;  $t_1^0$  – dastlabki harorat;  $t_2^0$  – oxirgi harorat.

Reaksiyaning harorat koeffitsiyenti har xil reaksiyalar uchun turlichadir. Uning qiymati ko'pchilik reaksiyalar uchun 2 va 4 oraliq'ida bo'ladi. Harorat koeffitsiyenti 2,9 ga teng bo'lsa, haroratni 100 °C ga ko'tarilishi natijasida reaksiya tezligi  $2,9^{10}$  marta, ya'ni 50000 marta ortadi. Har xil reaksiyalarning aktivlik energiyasi turlichadir. Ba'zi reaksiyalarning aktivlik energiyasi kam ba'zilarniki esa

yuqoridir. Agar aktivlik energiyasi juda kam (40 kJ/mol dan kam) bo'lsa, reaksiyaga kirishuvchi moddalar zarralari o'rtasidagi to'qnashuvlar natijasida kimyoviy reaksiyalar sodir bo'ladi. Bunday reaksiyalarning tezligi yuqori bo'ladi. Misol sifatida eritmadagi ionlar o'rtasidagi reaksiyalarni olish mumkin. Tajribaning ko'rsatishicha bunday reaksiyalar bir daqiqada boradi, ya'ni tezlik bir daqiqaga teng.

Agar aktivlik energiyasi juda yuqori (120 kJ/mol dan yuqori) bo'lsa, to'qnashuvlarning juda kam qismida reaksiya sodir bo'ladi. Demak, bunday reaksiyalarning tezligi juda kichikdir. Yuqori aktivlik energiyasiga ega bo'lgan reaksiyalarga misol qilib ammiak sintezi reaksiyasini olish mumkin:



Bu reaksiya oddiy haroratda shunchalik sekin boradiki, uni amalda payqash qiyin. Reaksiyaning aktivlik energiyasi juda kam va juda yuqori bo'lmasa (40-120 kJ/mol), bunday reaksiya o'rtacha tezlikda boradi. Bunday reaksiyalarning tezligini o'lchash mumkin va ularga misol qilib natriy tiosulfat bilan sulfat kislotasi eritmalari orasidagi reaksiyani olish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Parpiyev N.A., Reshetnikova R.V., Xodjayev O.F., Hamidov H.A., Qodirova Sh.A. Noorganik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari.-Toshkent: "O'zMU", 2005.-194 bet.
2. Ugay. Y. A. Neorganicheskaya ximiya. Uchebnik. M: Visshaya shkola. 1989.462 s
3. O.S.Zaytsev. "Obshaya ximiya" Sostayaniye veshestv i ximicheskiye reakcii. Ximiya.1990.352 s.
4. Axmetov N.S. "Obshaya i neorganicheskaya ximiya" Uchebnik. 2-izd.. pererab i dop. M: Visshaya shkola 1988. 639 s.
5. Axmetov N.S. Obshaya i neorganicheskaya ximiya.- M oskva: " Visshaya shkola " , 2005.-743 bet.

## XORAZM TUPROQ IQLIM SHAROITIDA QADIMIY BUG‘DOY NAV NAMUNALARINING TEXNOLOGIK SIFAT KO‘RSATKICHLARI

**Isayeva Zaxro Baxrom qizi** - Urganch davlat universiteti 1 - bosqich  
magistranti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Xorazm tuproq iqlim sharoitida qadimiy bug‘doy nav namunalarining texnologik sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** bug‘doy, don, oqsil, kleykovina, IDK ko‘rsatkichi, non, Qizil bug‘doy, Oq bug‘doy, o‘g‘it, genotip, qattiqlik, yaltiroqlik.

Bug‘doy doni sifatini ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri uning tarkibidagi umumiy oqsil va ho‘l kleykovina miqdori hamda IDK ko‘rsatkichi bo‘lib, u donning oziq qimmatliligi va texnologik xossalarini belgilaydi [2]. Don tarkibidagi oqsil faqat donning sifatini emas, balki uning qayta ishlash mahsulotlari va texnologik xususiyatlariga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Juda ko‘p sifat ko‘rsatkichlari don tarkibidagi kleykovina miqdori, uning non yopish xususiyatlari don tarkibidagi oqsil miqdoriga bog‘liq bo‘ladi.

Bug‘doy donidagi oqsil miqdori va sifati nav xususiyatlariga, tuproq iqlim sharoitiga, o‘g‘itlashga, o‘simlikni kasallik va zararkunandalar bilan zararlanishiga hamda boshqa omillarga bog‘liq holda o‘zgaradi.

A.V. Andrushenko va M.D. Fedorovalarning bug‘doy don sifatini aniqlash bo‘yicha ko‘p yillik tadqiqotlari natijasida mahalliy populyatsiyalardan ajratilgan nav namunalar bug‘doy standartidan farq qilishi ko‘rsatilgan.

Yuqori texnologik xususiyatga ega bo‘lgan navlar oqsil miqdori yuqoriligi bilan farqlanadi. Davlat standartlari bo‘yicha bug‘doy doni tarkibidagi umumiy oqsil miqdori 14 - 17 foizni va ho‘l kleykovina 28 foizdan yuqori bo‘lgan navlar kuchli bug‘doylar toifasiga kiritilib, bunday navlardan olingan un non ishlab chiqarishda “yaxshilovchi” sifatida ishlatiladi. Oqsil miqdori 12 - 14 foizli va kleykovinasi 28 foizga teng bo‘lgan navlar o‘rta toifaga kiritilib, non qilishda asosiy navlar hisoblanadi. Don tarkibidagi oqsil miqdori 10 - 12 foiz bo‘lib, kleykovina miqdori 22 foizdan yuqori bo‘lgan bug‘doy doni uchinchi toifaga, ya‘ni kuchsiz bug‘doy hisoblanib, non ishlab chiqarishda “yaxshilovchi” toifadagi un qo‘shib ishlatiladi [7].

Bug‘doy seleksiyasidagi asosiy maqsadlardan biri don sifatini ko‘tarish bo‘lib, yangi yaratilayotgan navlarni Davlat reestriga kiritish va tumanlashtirishga ruxsat berishda bu ko‘rsatkich asosiy hisoblanadi. Shu munosabat bilan o‘rganilayotgan nav namunalaridagi sifat ko‘rsatkichlarini o‘rganish ham ilmiy ishimizning asosiy

maqsadlaridan bittasidir.

Shuni ham aytish kerakki, hududning tuproq - iqlim sharoitlariga moslashgan, don sifati yuqori navlarni yaratishda shu regionga moslashgan eski mahalliy nav populyatsiyalarni dastlabki material sifatida foydalanish yaxshi natija berishi mumkin.

Xadjaqulov [8] ta'kidlashicha, bug'doy donlarining sifatini baholashda quyidagilar: oqsil miqdori, sedimentatsiya ko'rsatkichi, erkin tushish soni, nonning hajmi va shaklini saqlash xususiyati hamda kleykovina sifati ko'rsatkichi non mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida eng asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Shuning bilan birgalikda dondagi kleykovina miqdori va sifati bug'doy donining texnologik va ozuqaviy boyliligini baholovchi birinchi omil bo'lib hisoblanadi. Ayni paytda bug'doy donlarining texnologik sifat ko'rsatkichlariga keng ko'lamda tavsifnomalar berishda bug'doy yetishtiriladigan muhit ham oqsil miqdoriga, kleykovina miqdori va sifatiga yetarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Bug'doyning erta va kech ekilish muddatiga qarab, unib chiqishi va rivojlanishi ham har xil bo'ladi, bu esa donning texnologik sifatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bug'doyning yetilish davrida harorat yuqori bo'lib, yog'ingarchilik kam bo'lsa, bu holda dondagi oqsil va kleykovina miqdori yuqori bo'ladi. Pishish davrida yog'ingarchilik ko'p bo'lsa donning sifati pasayishi va kleykovina miqdori kamayib ketishi kuzatiladi [7,9].

Bizga adabiyotlardan shu narsa ma'lumki, bug'doy donining tarkibida oqsil va kleykovina miqdori ko'p bo'lsa undan shuncha yuqori sifatli non tayyorlash mumkin [3].

Oqsil miqdorining ko'p yoki kam bo'lishiga navning biologik xususiyati, yetishtirish uslubi va iqlim sharoitlari ta'sir etadi [5].

Ko'pgina mualliflar tadqiqotlaridan bizga ma'lumki, donda oqsilning miqdori ko'p jihatdan tashqi muhit omillariga, tuproq tipiga, uning suv rejimiga, oldin ekilgan ekinlarga va azotli o'g'itlar miqdoriga bog'liq bo'ladi [4,5,6].

Bundan tashqari don tarkibidagi oqsilning miqdori G'arbdan Sharqqa tomon ekilib borishi bilan oshib boradi [5].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda Respublikamizning shimoliy xududlarida yetishtirilayotgan navlarning doni tarkibidagi sifat ko'rsatkichlarini baholash uchun biz Xorazm viloyatida ekilayotgan ayrim qadimiy bug'doy navlarni doni tarkibidagi kleykovina miqdori va IDK ko'rsatkichlarini ekib o'rganib ko'rdik.

Xorazm viloyatida yetishtirilgan navlarning doni tarkibini biokimyoviy tahlil qilganimizda shu narsa ma'lum bo'ldiki, kuzatish ishlari olib borayotgan

navlarimizdan Oq bug‘doy navida kleykovina miqdori 30,0 foizga teng bo‘lib, IDK ko‘rsatkichi 93,0. II qoniyarli kuchsiz, Qizil bug‘doy navida 35,0 foiz bo‘lib, IDK ko‘rsatkichi 33,6. II qoniyarli qattiq ko‘rsatkichga ega bo‘ldi (1 - jadval).

**1 - jadval**

**O‘rganilayotgan bug‘doy navlarining sifat ko‘rsatkichlari**

<b>№</b>	<b>Navlar nomi</b>	<b>Kleykovina, %</b>	<b>IDK</b>
1	Oq bug‘doy	30,0	93,0. II qoniyarli kuchsiz
2	Qizil bug‘doy	35,0	33,6. II qoniyarli qattiq

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki don tarkibidagi oqsilning sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlari nafaqat navning o‘stirilgan sharoitga va unga berilgan o‘g‘it miqdoriga, balki nav genotipiga ham bog‘liq bo‘lib, yangi navlar yaratishda bu belgiga alohida e‘tibor berish kerak bo‘ladi.

Don sifati juda ko‘p ko‘rsatkichlar mahsulidir. Donning sifati, yaltiroqliligi yoki qattiqlik bug‘doy navi xos belgilardan biridir. Shunga qaramay bu belgilar bug‘doy o‘simligining o‘shish sharoitiga ko‘ra o‘zgarishi mumkin. Donning yaltiroqlik sifati namlik ortiqcha bo‘lgan, azot yetishmagan sharoitda pasayadi. Sedimentatsiya ko‘rsatkichi o‘simlikning mineral o‘g‘itlanish darajasiga bog‘liq bo‘lsada, ammo har bir nav uchun alohida ko‘rsatkichini aniqlaydi. Ma‘lumki o‘simlik o‘z vaqtida va yetarli darajada oziqlantirilsa nafaqat hosildorlik oshadi, balki donning sifatiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Beltyukov L.P [1] xulosalariga ko‘ra, tuproqda namlik ko‘p bo‘lib, azot taxchil, tuproq eritmasining quyug‘ligi (konsentratsiyasi) qanchalik past bo‘lsa, bug‘doy donining shishasimonlik darajasi ham shu qadar past bo‘ladi.

Don quruq moddani mum pishish davrining oxirigacha hosil qiladi va don to‘liq pishgandan so‘ng dondagi quruq modda o‘zgarimas bo‘ladi, 1000 dona don vazni esa oqsil miqdori bilan o‘zaro bog‘liq.

Tuproq eritmalari nechog‘lik quyug‘ (to‘yingan) bo‘lsa, donning yaltiroqlik sifati shu qadar ortadi.

Xorazm viloyati sharoitida yetishtirilayotgan ayrim qadimiy bug‘doy navlarini shishasimonligini tekshirib ko‘rganimizda, navlar ichida faqatgina Oq bug‘doy navi 97 foizga, Qizil bug‘doy navi 82 foizga ega bo‘ldi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бельтюков Л.П. “Сорт, Технология, урожай. Ростов-на-Дону”. ЗАО “Книга”. 2002. - 166 с.
2. Гатаулина Г.Г., Обьедков М.Г. “Практикум по растениеводству”. - М.: Колос, 2000. - 216 с.
3. Носатовский А.Н. “Пшеница”. Биология - М. 1965. - 586 с.
4. Oripov R., Halilov N. “O‘simlikshunoslik”. - T., 2007. 57 - 71 b.
5. Павлов А.Н. “Накопление белка в зерне пшеницы и кукурузы”. М.: Колос 1967. - 339 с.
6. Посипанов Т.С. “Растениеводство”. - М., 2006.
7. Василенко И. И., Комаров В. И. “Оценка качества зерна”. - М.: Агропромиздат, 1987. - 208 с.
8. Хаджакулов Т., Гайбуллаев С. “Оценка комбинационной способности компонентов урожая зерна у уаровой пшеницы”. Ташкент. 1991. 16-20 с.
9. Zokirov T.S., Rag‘matov I.M. “Donchilik asoslari”. Qarshi: Nasaf, 1999. - 122 b.

## DARS JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING O‘ZARO HAMKORLIKKA ASOSLANGAN IJODIY FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISH YO‘LLARI

**Buxoro davlat universiteti, professori, p.f.d. (DSc) N.G.Dilova**  
**Maktabgacha ta’lim kafedrası o‘qituvchisi M.A. Kosimova**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarida hamkorlikda o‘qitish ta’lim texnologiyasidan foydalanish asosida “o‘qituvchi-o‘quvchi”, “o‘quvchi-o‘quvchilar” hamkorligi, o‘zaro do‘stona munosabatga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish imkoniyatlari, metodlar tasnifi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, hamkorlikda o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan interfaol usullarning mazmun-mohiyati, vazifalari, o‘quvchilarda shakllantiriladigan ko‘nikmalar, o‘qituvchi mahorati, darsga qo‘yilgan talablar haqida ma’lumotlar berilgan.

**Tayanch so‘z va tushunchalar:** “o‘qituvchi-o‘quvchi”, “o‘quvchi-o‘quvchilar” hamkorlik, metod, interfaol usullar, faol ta’lim, do‘stona munosabat, mahorat, ko‘nikma, ijodkorlik.

**Аннотация:** В данной статье на основе использования образовательных технологий рассматриваются сотрудничество «учитель-ученик», «ученик-ученик», взаимно-дружественные отношения, совместное обучение в классах начальной школы, возможности организации учебного процесса, классификация методов. Приводятся их особенности, содержание и сущность интерактивных методов, используемых в процессе совместного обучения, задачи, умения, которые необходимо формировать у учащихся, умения учителя, требования к информации урока.

**Ключевые слова и понятия:** «учитель-ученик», сотрудничество «ученик-ученик», метод, интерактивные методы, активное обучение, доброжелательное отношение, умение, умение, креативность.

**Abstract:** In this article, based on the use of educational technology, "teacher-student", "student-student" cooperation, mutual friendly relationship, cooperative teaching in elementary school classes is discussed. opportunities for organizing the educational process, classification of methods, their specific features, content and essence of interactive methods used in the process of cooperative education, tasks, skills to be formed in students, teacher's skills, requirements for the lesson information is provided.

**Key words and concepts:** "teacher-student", "student-student" cooperation, method, interactive methods, active learning, friendly attitude, skill, skill, creativity .

### **Mavzuning dolzarbligi.**

Zamonaviy pedagogika fanida yangicha tafakkurga asoslangan “o‘qituvchi-o‘quvchi”, “o‘quvchi-o‘quvchilar” hamkorligi, o‘zaro do‘stona munosabatga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish orqali darslarni olib borish samarali natijadorlikni ta’minlamoqda. Ya’ni, o‘quv mashg‘ulotlarini “pedagogik hamkorlik, subyekt-subyekt munosabatlari” asosida tashkil etish o‘quvchilarga bilimlarni puxta egallashga ijobiy imkoniyat yaratmoqda.

Bugungi kunda ta’lim jarayoni sifatini oshirish, o‘quvchilarni xalqaro darajadagi bilimlar bilan qurollantirish, ularda hayotiy ko‘nikmalarni tarkib toptirish muammolari o‘quv jarayonini do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda o‘qitish ta’lim texnologiyasidan foydalanishga yo‘naltirilgan holda tashkil etish vazifasini yanada dolzarblashmoqda.

### **Adabiyotlar tahlili.**

Pedagogik hamkorlik bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar V.A.Arshinov, Y.A.Danilov, B.B.Kadomsev, YE.N.Knyazeva, S.P.Kurdyumov, A.Y.Loskutov, A.P.Nazaretyan, Dj.Nikolis, I.Prigojin, I.Stengers, G.Xakenlarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari, yurtimiz pedagoglaridan Sh.Abdullayeva, N.Dilova, F.Muzaffarovalarning hamkorlikdagi ta’lim jarayonlarini tashkil etishga oid ilmiy tadqiqot ishlarida ham darslarda o‘qituvchi - o‘quvchi munosabatlari, bir – birini tushinish, hurmat qilish, qo‘llab-quvvatlashga asoslanish, ijodiy erkinlikning ta’minlanishi, sog‘lom raqobatni yuzaga keltirish kabi g‘oyalar e’tirof etilgan. Mazkur ishlarida tarkiblashmagan va muayyan tartibga solinmagan munosabatlarning mavjud emasligi ta’kidlanadi. Muayyan holatlarda tasodifiylik ham yaratuvchilik xarakteriga ega bo‘lishi pedagogik nuqtayi nazardan asoslangan.

### **Mavzu metodologiyasi.**

Boshlang‘ich sinf darslarida kichik yoshdagi o‘quvchilarning hamkorlikka asoslangan ijodiy faoliyatini tashkil etishda asosiy e’tiborni ularning qiziqishi va ehtiyojlariga qaratish lozim. Chunki globollashuv jarayonlari hamda axborotlarning tezkorligi bolalarning texnika, multimedia mahsulotlariga qiziqishi, o‘zlarining shaxsiy amaliy faoliyatlariga yondashgan holda mavzuni o‘zlashtirishga bo‘lgan harakatlarini qondirish uchun o‘qituvchi doim tayyor turishi, axborotli mahsulotlarni tayyorlashi va ulardan samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lishi, asosiysi har bir ta’lim metodlari haqida to‘liq bilimlarga ega bo‘lishi talab etiladi:

Pedagog olimlardan I.Y.Lerner va M.N.Skatkin ta'lim jarayonida foydalaniladigan o'qitish metodlarini qo'llanish xususiyatlariga qarab quyidagilarga ajratadilar:

- tadqiqot metodi;
- qisman izlanish metodi;
- tushuntirish- rasmlar metodi;
- reproduktiv metod;
- muammoli bayon qilish metodi.

S.I.Petrovskiy va Y.Y.Golantlar esa ushbu metodlarni qo'llanishiga qarab faol va passiv metodlarga bo'lish quyidagicha tasnif etishadi:

-agar o'quvchilar mustaqil ishlasa, faol metodlar: laboratoriya metodi, kitob bilan ishlash, guruhlarda ishlash, ijodiy faoliyatni rivojlantiruvchi mashqlar ni bajarish, taqdimot qilish kabilar.

-agar o'quvchilar faqat tinglasa va eshitsa, passiv metodlar: hikoya, ma'ruza, tushuntirish, namoyish qilish metodi, savol-javob, ekskursiyalar.


Y.K.Babanskiyning metodlar haqidagi ilmiy izlanishlariga asoslanib ta'lim metodlarini qo'llanishiga qarab uchta ta katta guruhga bo'lib tasniflaydi:

-o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

-bilishga doir o'yinlar, o'quv munozaralari, qiziq vaziyatlarni vujudga keltirish, rag'batlantirish, tanbeh berish va nazorat metodlari;

-nazorat va o'zini-o'zi nazorat qilish metodlari.

Ma'lumki, hamkorlikda o'qitish ta'lim texnologiyasiga asoslangan o'quv jarayonida ta'lim oluvchi-o'quvchi markazda bo'ladi. Ya'ni, mavzuni o'rganishda o'quvchi faol ishtirokchi sifatida maydonga chiqadi. O'quvchi ta'lim olishga oid barcha ma'suliyatni o'z zimmasiga oladi, o'z jamoasi uchun ham ko'proq harakat qilishi zarurligini tushunib yetadi. Mahoratli o'qituvchi tomonidan belgilangan mavzuni o'zlashtirish maqsadida tanlangan har bir o'quv harakati natijasida bir qator quyidagi talablar bajariladi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Hamkorlikda o'qitish ta'lim texnologiyasiga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etishga qo'yilgan talablar.**

Hamkorlikda o'qitish ta'lim texnologiyasi asosida dars jarayonlarini tashkil etishda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va samarali qo'llash eng muhim talab bo'lib, bilimlarni egallashda turli usullardan foydalanib, o'quvchining izlanishi, ma'lumotlarni egallash yo'li bilan uni faollashtirish, hamkorlikda muammolarga yechim topishga asoslanadi. Bunda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining ma'lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga va tartibga solingan tadbirlar majmuasi belgilangan o'quv qonuniyatlariga amal qiladi.

Hamkorlikda o'qitish ta'lim texnologiyasi asosida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari amalga oshiriladi. Bu esa, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-talaba faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

O‘zaro do‘stona munosabat, ijodiy muhitga asoslangan ta’lim jarayonida o‘qitishning qiziqarli va samarali bo‘lishida, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarni mukammal egallashlari uchun o‘qituvchining asosiy vazifasi darsda samarali usul-metodlardan foydalanib, o‘quvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish, mustaqil hayotga tayyorlash, shuningdek ularda axloqiy sifatlarni tarkib toptirishdan iboratdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan dars jarayonida qo‘llaniladigan interfaol usullar mazmun va mohiyati, vazifalari jihatdan bir-birini to‘ldirib, maqsadni ta’minlash uchun xizmat qiladi (1-jadvalga qarang).

**1-jadval.**

**Hamkorlikda o‘qitish ta’lim texnologiyasiga asoslangan dars jarayonida qo‘llaniladigan interfaol usullarning mazmuni va vazifalari**

<b>№</b>	<b>Interfaol usullar</b>	<b>Mohiyati</b>
<b>1</b>	<b>Savol berish orqali o‘qitish usuli</b>	O‘qituvchi o‘quvchilar oldiga savollarni ko‘ndalang qilib qo‘yadi va bu bilan ularni berilgan ma’lumotni yana takrorlashga undaydi. Shu tariqa ularni o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan og‘zaki va boshqa aloqa uslublarini tushunib yetganliklari aniqlanadi.
<b>2</b>	<b>Muhokama usuli</b>	O‘quvchilarga suhbatlashish, masalalarga oydinlik kiritish, savollar berish, shuningdek ma’lumotni o‘zaro va o‘qituvchi bilan muhokama yo‘li bilan tahlil qilish taklifi kiritiladi.
<b>3</b>	<b>Suhbat usuli</b>	Mavzuga aloqador manbaviy ma’lumotlar beriladigan bir sharoitda va darsning bir qismi sifatida ana shu mavzu haqida tushuntirish berish muhim hisoblanadi. Odatda ma’ruza vaqti 30 daqiqadan uzoq bo‘lmasligi kerak va asosiy vaqt ma’ruza ta’riqasida va mashg‘ulot so‘ngida o‘qituvchiga savollar berish uchun bir oz vaqt ajratiladi.
<b>4</b>	<b>Bahs-munozara usuli</b>	O‘quv guruhini ikki guruhga bo‘lgan holda, biror mavzu bo‘yicha o‘zaro baxs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladi.
<b>5</b>	<b>Tadqiqot usuli</b>	O‘zlashtirish darajasining eng yuqori cho‘qisi; o‘quvchilarning olgan bilimlari asosida hali o‘rganilmagan kichik bir muammo ustida yakka yoki birgalashib izlanish olib borishi; keltirilgan taxminni izlab

		topilgan dalillar asosida to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirish.
6	<b>Roli o'yinlar</b>	Ishbilarmonlik yoki rolli (vaziyatli) o'yinlar - muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o'rinda, matnli material o'rniga o'quvchilar tomonidan rollar o'ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashti-riladi.
7	<b>Loyiha usuli</b>	Bu usul bilim va malakalarni, tahlil qilish va baholashni nazarda tutuvchi ta'limning majmuaviy usulini amalga oshiradi. Loyiha usulida o'quvchilar rejalashtirishda, tashkil qilishda, tekshirishda, tahlil qilishda va bajarilgan ishning natijalarini baholashda ko'proq ishtirok etadilar. Ta'lim oluvchilar ayrim kichik loyiqa ishlarini, diplom va kurs loyihalari, bitiruv ishlarini ilmiy asoslangan holda loyihalashtiradilar, mustaqil bajaradilar, ularni yozadilar, taqdimot qiladilar, qo'yilgan maqsad va natijalarni tahlil qiladilar.
8	<b>Mustaqil o'rganish usuli</b>	Ushbu usul ta'lim oluvchilarning o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishini, o'z – o'zini tekshiruv malakalarini, berilgan matnning mazmunini to'liq va ongli ravishda bayon eta bilishiga qaratilgan usuldir. Bu usul vaqti–vaqti bilan o'tkazib turiladi, o'quvchilarning mustaqil o'rganish, darslik bilan ishlash va mustaqil amalaiy faoliyat bilan shug'ullanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Har bir o'quvchi alohida yoki umumiy tarzda tashkil qilinadigan topshiriqni bajaradi. O'qituvchi o'quvchilarning amaliy faoliyatiga aralashmay, tashqaridan teskari aloqa- muloqot yordamida yo'naltirib boshqaradi va nazorat qiladi.
9	<b>Pinbord usuli</b>	Bu usul aqliy hujum metodining bir ko'rinishi bo'lib, unda qo'yilgan muammoni hal qilish bo'yicha g'oyalar alohida qog'ozchalarda yozilib, doskaga mixlanib boriladi. Ikkinchi bosqichda esa, ular turli mezonlar bo'yicha sinflarga bo'linadi, saralanadi va muayyan tartibda doskada joylashtiriladi.
10	<b>Boshqalarni o'qitish orqali o'rganish usuli</b>	Bu usulda ta'lim oluvchilar belgilangan mavzu yoki qo'yilgan muammo bo'yicha bir – birlariga axborotlarni almashadilar va o'z bilganlarini boshqalarga o'rgatadilar.

11	<b>Lug‘at bilan ishlash (diktant)</b>	bilimlarni baholashning joriy nazorat shakli; odatda qisqa vaqt davomida o‘tkaziladi; o‘quvchilarning o‘tilgan atama va tushunchalarni bilish darajasini tekshirish uchun o‘tkaziladi.
12	<b>Ovozga qo‘yish metodi</b>	Dars davomida bahsli vaziyatni keltirib chiqarish; yuzaga kelgan bahs munozarani boshqarish maqsadida, bahs yuritayotgan tomonlarning fikrlarini sinf bo‘yicha ovozga qo‘yish; har bir fikr bo‘yicha qarshi, rozi va betaraflarni aniqlash; tomonlarning dalillarini va fikrlarini tinglash; so‘ng yana ovozga qo‘yish; xulosalash.

Yuqorida keltirilgan interfaol usullar juda ko‘p bo‘lib, ular o‘qituvchining innovatsion faoliyati va akmeologik darajasiga ko‘ra takomillashtirib boriladi. Shuni ta’kidlash joizki, hamkorlikda o‘qitish nazariyasiga tayangan holda interfaol usullarni ta’lim jarayonida samarali qo‘llashda o‘ziga xos o‘zaro aloqadorlikdagi ijodkorlikni ta’minlovchi o‘zgarish vujudga keladiki, buning natijasida tarkib topgan shaxsiy sifatleri, xulq-atvori yordamida o‘quvchi oldiga qo‘yilgan vazifalarni yechish imkoniyati yanada kengayadi. O‘zlashtirilgan bilimlar o‘quvchi ichki taraqqiyotini yangicha shaklga kirishini ta’minlaydi. Bu o‘rinda ta’lim xotirani jadallashtiruvchi jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda o‘quvchi o‘zlashtirgan bilimlar uning xulq-atvorini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. O‘quv jarayoni yakunlanganda o‘quvchi xotirasida o‘zlashtirilgan bilimlar to‘planadi va uning ijtimoiy tajribasiga aylanadi.

Hamkorlikka asoslangan ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadilar, muomala qilish madaniyatini egallaydilar, har bir o‘quvchi o‘zi, guruhdoshlari, sinfdoshlarining muvaffaqiyati uchun harakat qiladi.

Natijada, ularda o‘zaro ishonch va samimiy do‘stona munosabat tarkib topadi. Birdamlilik, hamjihatlilik kuchi va sinfdoshlarining yutuqlari uchun mas’uliyatni his qila boshlaydilar. Do‘stona munosabatlar asosida ta’lim jarayonini tashkil etadigan o‘qituvchilarning qiyofasi va ish uslubida muayyan ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Dars jarayonining tarkibiy tuzilishidan tortib, o‘quvchilarning bilimini baholashgacha, pozitiv, ijobiy munosabat, ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilangan talablar namoyon bo‘ladi.

### **Xulosa.**

Boshlang‘ich sinf darslarida hamkorlikka asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etishda foydalaniladigan interfaol usullarni aniqlash uchun bu sohada mavjud bo‘lgan yondashuvlar, tushunchalar, qarashlar, ta’limotlarni to‘plash, tasnif qilish va uni o‘qituvchi faoliyatiga joriy etish maqsadida tegishli ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyatining mavjudligi ayon bo‘ldi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanish nazariyasiga tayangan holda yondashish uni ta'limning samarali shakli sifatida baholash imkonini beradi. Shu sababli, ta'lim jarayonida "o'qituvchi-o'quvchilar" hamda "o'quvchi va o'quvchilar"ning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish usuli faqatgina bilimlar, axborotlarni o'zaro ayiraboshlash, tabiiy holatlarni bashorat qilish, ma'rifat tarqatish hamda taqdim etish imkoniyati emas, balki nomuntazam, ochiq, to'g'ridan-to'g'ri va teskari muloqot vaziyatidir. Shu bilan bir qatorda, hamkorlikdagi ta'lim jarayoni unutilgan narsa va hodisalarni birga izlash, qayta eslash jarayoni hamdir. Bu o'rinda bilimlar o'quvchilar shaxsiga ta'sir ko'rsatmaydi, balki ularni rivojlantiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov, Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. T.: Fan va texnologiyalar nashiryoti 2008 y
2. Umarova F va boshqalar, Samarali maktab va hamkorlik madaniyati: Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilaining metodik guruhlarni o'qitish modullari.T.: 2010 y
3. Dilova N.G'. Ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirishda pedagog kadrlarning o'rni//Xalq ta'limi.– Toshkent, 2018.-№ 3. B. 51 -54.
4. Dilova N.G'. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik hamkorlik jarayonining mazmuni va uni tashkil etish prinsiplari //Uzluksiz ta'lim. – Toshkent: 2018. – № 3. – B. 14-17.

## THE STRUCTURE OF COMORBID PATHOLOGY IN CHILDREN WITH COVID-19

**Rakhmatullayeva Sh.B.<sup>1</sup>, Khusanov A.M.<sup>2</sup>, Nurmatov A.Kh.<sup>2</sup>,  
Sadullaev S.E.<sup>3</sup>**

<sup>1</sup> **Tashkent Medical Academy**

<sup>2</sup> **Republican Specialized Hospital of Zangiata 1 of the Ministry of Health of  
the Republic of Uzbekistan**

<sup>3</sup> **Urgench branch of Tashkent Medical Academy**

COVID-19 is characterized by a high risk of severe course and death in patients with comorbid pathology. Doctors are faced with the task of assessing the complex of anamnestic data and clinical symptoms in a short time in order to make a decision on the need to hospitalize a patient with COVID-19. At the same time, the predictors indicating an unfavorable course of COVID-19 have not been sufficiently studied. The factors contributing to the deterioration of the patient's condition and leading to an unfavorable outcome have also not been sufficiently studied [Moreno-Pérez O. et al., 2020; Zou X., et al., 2020].

**The purpose of the study:** determination of the frequency of comorbid pathology in COVID-19 in children.

**Materials and methods of research.** To identify predictors of the adverse course of COVID-19 in patients with comorbid pathology at the population level, patients with one or more comorbid pathologies were selected. As a result, the study included 249 children with laboratory-confirmed PCR COVID-19. The patients were hospitalized in the Republican Specialized Hospital of Zangiata 1 of the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan.

**The results of the study.** When analyzing the presence of comorbid pathology, it was found that patients with comorbid pathology were registered in

26% of cases. When assessing the severity of the COVID-19 disease, depending on the presence of comorbid pathology and the age of the patient, it was determined that in all age groups, the proportion of severe infection was significantly higher in patients with comorbid pathology, and mild - without it. The total number of children with mild COVID-19 was 10.4% (26 children), with moderate severity – 85.9% (214 patients), with severe course – 3.6% (9 children).

In this sample, patients with diseases of the cardiovascular system were more likely to occur 49.7%, with respiratory diseases - 1.7%, endocrine diseases – 7.6%, and other diseases – 26.5%.

**Conclusions.** The presence of comorbid pathology (chronic kidney disease, chronic diseases of the lower respiratory tract, obesity of grade II and higher, arterial hypertension, type I and II diabetes mellitus) plays a decisive role in increasing the risk of an adverse outcome.

**Bo'lg'usi maktabgacha ta'lim tarbiyachilari orqali bolalarni badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishda Ozod Sharafiddinovning ijodiy merosini ahamiyati**

**Urganch davlat Pedagogika instituti talabasi: Avezova Mastura**  
**Urganch davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi: Axmedova Gulnoza**

**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy qobiliyatlarini shakllantirish, ularda vatanga bo'lgan mexr-muxabbatni shakllantirishda adiblarimizning ijodiy merosi juda katta ahamiyatga ega. Bola o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga bo'lgan vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishda hamda badiiy-ijodiy qobiliyatlari rivojlanishida Ozod Sharafiddinovning ijodiy merosini ahamiyati va dolzarbligi haqida so'z yuritiladi.

Ikkinchi davr munaqqid faoliyatida asosiy davr bo'lib, u istiqlol yillaridagi ijodini qamrab oladi. Bu davrda Ozod Sharafiddinov milliy adabiyotni shakllantirish muammolari, o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligini qayta qurish, jahon adabiyoti an'anasini o'zlashtirish hamda tarjima san'atini yuksaltirish masalalarini tadqiq etgan.

Ozod Sharafiddinov o'zbek adabiyotini jahon adabiyoti bilan uyg'un tarzda o'rganish an'anasini boshlab bergan. Ozod Sharafiddinovning «Istiqlol fidoyilari» (1993), «Sardaftar sarlavhalari» (1999), «Ma'naviy kamolot yo'llarida» (2001) kitoblarida Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qahhor, Oybek, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, Otajon Hoshimov ijodi yangicha nuqtai nazardan tahlil etilgan. «Cho'lponni anglash» (1993) asarida esa yangi o'zbek tanqidchiligi 20-asrda bosib o'tgan murakkab yo'lni talqin, tahlil qilgan, ko'plab munaqqidlar ijodi, estetik printsiplari Cho'lpon ijodiga munosabat nuqtai nazaridan yoritgan.

Ozod Sharafiddinov ijodining cho'qqisi «Ijodni anglash baxti» (2004) kitobidir. Unda o'zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonida tutgan o'rni va ilmiy-ma'naviy o'zanlari tadqiq etib berilgan. Ozod Sharafiddinov adabiyotshunos olim, tanqidchi va tarjimon bo'lgan. U 1929-yilning 1-martida Farg'ona viloyati Qo'qon shahriga yaqin bo'lgan Oxunqaynar qishlog'ida tavallud topgan. Avvaliga Toshkentdagi 14-o'rta maktabni, undan so'ng hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. Moskvada esa, aspiranturani tugatgan va ilmiy darajani olgan. U adabiyotda salmoqli va takrorlanmas ijod qila

olgan. O'zbek she'riyati va unga oid ham tanqidiy ham adabiy maqolalar yozgan. Uning ijodiga mansub:

Vatan-ona so'zi naqadar laziz,  
Sensan har narsadan mo'tabar aziz,  
Hurmatingni saqlar har bir o'g'il-qiz  
Muqaddas, mo'tabar, ulug' Vatanim,  
O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.

Quyidagi misralarining zamirida chuqur ma'no, o'ziga xoslik va uslub mujassam. Ozod Sharafiddinovning ijodida so'zlarning uyg'unligi, ulardan to'g'ri foydalanish, oddiy so'zlarda chuqur ma'no yaratish singari mahoratlarni guvohi bo'lish shubhasiz. Adabiyotshunos, kuchli so'z ustasi bo'lgan va u deyarli hamma yo'nalishlarda ijod qilgan. Ozod Sharafiddinov butun umri davomida vatanga sadoqat tuyg'usi bilan yashagan. Ijodkor o'zining to'g'ri so'zi, irodasi va vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati orqali yurtimiz ravnaqi yo'lida ko'plab samarali ishlarni amalga oshirgan. Ayniqsa, o'zbek adabiyotida yorqin iz qoldirgan. Tarbiyachilar adiplarimizning ijodiy namunalari orqali bolalarda vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish bilan bir qatorda ularda diqqat, xotira, tafakkur tushunchalarini ham shakllantirishlari mumkin. Bo'lg'usi tarbiyachilar adabiyotimizdagi juda ko'plab yozuvchilarimizning ijod xazinalaridagi turli xil ijod namunalari, ayniqsa yurt haqidagi asarlar bilan bolalarga ta'lim-tarbiya jarayonlarida foydalanishlari zarur. Ozod Sharafiddinov ham mazmundor, ijod namunalaridan faoliyat jarayoniga tadbiiq qilish zarur. Ya'ni olim o'zbek adabiyotida alohida o'z mavqeiga va o'rniga ega bo'la olgan shaxsdir. Adabiyotshunos vatan, yurt ravnaqi, yoshlar kelajagi uchun bir qancha qiyinchilik va mashaqqatli vaziyatlarga qaramay doimo oldinga intila olgan allomalardir. Shu sababli u o'z tug'yonlarini, kechinmalarini o'z asarlari orqali bayon qilgan.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni vatanga muhabbatini oshirishda uning asarlari juda katta rol o'ynaydi. Bo'lg'usi tarbiyachilarimiz ko'zlagan maqsadga yetishlari uchun adiblar asarlaridan foydalansalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Adibimizning asarlarining ko'pchiligi har qanday holatlarda ham sabrli bo'lib, qiyinchiliklarni yengib o'tishga undaydi.

## Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy-ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishda Abdulhamid Cho‘lponning asarlari ahamiyati

Urganch davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi: Axmedova Gulnoza

Urganch davlat Pedagogika instituti talabasi: Avezova Mastura

**Annotatsiya:** Maqolada Cho‘lpon hayoti davomida bizga ko‘pgina asarlarni meros qilib qoldirgan. Ularda maktabgacha yoshdagi bolalar ma’naviyatini shakllantirishga oid g‘oyalar haqida so‘z yuritiladi. Cho‘lponni vatanparvarlik tuyg‘ularini, vatan ozodligi, ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘shgan xissasi haqida yosh avlod ongiga singdirish haqida ma’lumotlar bayon qilingan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng adabiyot va san’atning boshqa sohalarida bo‘lganidek, adabiyotshunoslik sohasida ham yangi davr boshlandi. Uzoq yillar davomida o‘rganilishi taqiqlangan madaniy merosimizning qatag‘on davri bilan bog‘liq sahifalari qaytadan tiklanmoqda. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Elbek singari yozuvchilarimizning asarlari xalqimizga qaytarilib, ularning hayoti va ijodi jiddiy ravishda o‘rganildi va o‘rganilishda davom etmoqda.

Turkistonda milliy uyg‘onish va yoki jadidchilik harakatining o‘rganila boshlaganiga qariyb yigirma yil bo‘lishiga qaramay, jadidchilik namoyondalari va ularning ijodi bo‘yicha talaygina ishlar amalga oshirildi. Bu harakat namoyondalarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish nafaqat O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, balki Germaniya, AQSH, Fransiya, Yaponiya, Turkiya kabi mamlakatlardagi olimlarning ham faol shug‘ullanayotganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Adabiyotimizda Cho‘lpon singari millat masalasini, milliy g‘urur, milliy ozodlik tuyg‘ularini hech ham to‘xtamasdan, hech tanaffuslarsiz ko‘tarib chiqqan ijodkor yo‘q. Cho‘lpon butun umr, hayotini millatga tikkan va shu yo‘lda yashab o‘tgan ijodkor edi. Cho‘lpon ham boshqa jadidchilar kabi ijodida ma’rifatchilikni kuylagan holda boshlagan edi. Uning “Qurboni jaholat”, “Do‘xtur Muhammadyor” asarlarida ham aynan ziyoli, o‘qimishli kishilarning jaholat qurboni bo‘lganliklari aks etgan. Cho‘lpon o‘zining ma’rifatparvar g‘oyalarida jaholatning qanchalik daxshatli og‘riq, tuzalmas kasallik ekanligini ko‘rsatib o‘tgan.

Adabiyotning millat hayotidagi o‘rni va roli haqida o‘n yetti yoshida maqola yoza olganligi ijodning, adabiyotning millat uchun naqadar kerakligi xususida ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu xususiyati kelgusi yosh avlod uchun o‘rnak bo‘lsa arziydigan ishdir. Shoir lirikasiga to‘xtalganimizda, yuqorida aytib o‘tganimizdek, ma’rifatparvarlik g‘oyalari ochiq-oydin aks etib turganini sezamiz. Xalqni, millatni

qoloqlikdan olib chiqish, “malla”larga bo‘yin egmaslik tuyg‘ulari yo‘g‘rilgan birgina “Ko‘ngil” she‘rini olsak:

Tiriksan, o‘lmagansan,

Sen-da odam, sen-da insonsen,

Kishan kiyma,

Bo‘yin egma,

Ki, sen ham hur tug‘ilg‘ansan!

Bunday jasoratli hayqiriq, bunday millatni yuksaltirishga, ko‘nglini uyg‘otishga, chetdan kelgan har kimga ham bo‘yin egavermaslikka, “Sen ham odamsan, “malla”lardan hech kaming yo‘q” deya fikrni singdirishda Cho‘lpondek boshqa ijodkor bo‘lmagan. Insonning yuragidagi ajib hislarni uyg‘ota olgan va uni da‘vat eta olgan chaqiriqlari bilan ajralib turgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, biz Cho‘lpon hayoti ijodiga nazar solar ekanmiz unda vatanimiz madhi, ma‘rifatparvarlik tuyg‘usi, millatni qoloqlikdan saqlash g‘oyalari haqida fikr yuritganlar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma‘naviy rivojlanishida Cho‘lpon asarlariga murojat qilishimiz va keng ommaga yanada ko‘proq targ‘ib qilishimiz zarur. Yoshlarga kimni avlodi ekanimiz haqida maktabgacha yoshda o‘rgatsak, kelajakda shu adiblarimizning avlodiga munosib shaxs bo‘lib yetishishlari uchun poydevor bo‘ladi dep xisoblaymiz.

## MAQSUD SHAYXZODANING O‘ZBEK MILLIY ADABIYOTIGA QO‘SHGAN XISSASI

**Toshkent davlat transport universiteti**  
**katta o‘qituvchisi: Xudoyberganov Sardor Bahodirovich**  
**Toshkent davlat transport universiteti talabasi**  
**Sultanov Mehriddin Ulug‘bek o‘g‘li**  
**Toshkent davlat transport universiteti talabasi**  
**Rajabov O‘lmas Azamat o‘g‘li**

**ANNOTATSIYA:** Maqsud Shayxzoda san‘at, adabiyot tarix va falsafaga qiziqgan ko‘p qirrali istedod soxibi bo‘lgan. Bundan tashqari u mohir tarjimon ham bo‘lgan. Uning yaratgan asarlari manaviy merosimiz va boyligimiz hisoblanadi. Hozirgi kunda juda ko‘p joylarga Maqsud Shayxzoda nomiga berilgan. Bundan tashqari uning nomiga medal, stipendiyalar ham ta‘sis etilgan.

**Kalit so‘zlar:** hayoti, asarlari, she‘riy to‘plamlar, ocherklar, tarjima kitoblar, falsafa, adiblarning fikri, ijodiy do‘stlari.

**ABSTRACT:** Maksud Shaykhzoda was a multi-talented man interested in art, literature, history and philosophy. He was also a skilled translator. His works are our spiritual heritage and wealth. Today, many places are named after Maqsud Shaykhzoda. In addition, medals and scholarships were established in his name.

**Keywords:** life, works, poetry collections, essays, translated books, philosophy, writers' opinions, creative friends.

**АННОТАЦИЯ:** Максуд Шайхзода был разносторонне одаренным человеком, интересовавшимся искусством, литературой, историей и философией. Он также был искусным переводчиком. Его произведения – наше духовное наследие и богатство. Сегодня многие места названы в честь Максуда Шайхзода. Кроме того, были учреждены медали и стипендии его имени. **Ключевые слова:** жизнь, произведения, поэтические сборники, очерки, переводные книги, философия, мнения писателей, творческие друзья.

O‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, mashhur shoir, zabardast dramaturg, adabiyotshunos olim va tarjimon. Maqsud Shayxzoda 1908-yil 25-oktyabrda Ozarboyjonning Oqdosh shahrida tavallud topdi. Boshlang‘ich va o‘rta ma‘lumotni Oqdoshda olgan. Boku Oliy pedagogika institutida sirdan o‘qidi va 1925-yildan boshlab Derkend shahrida muallimlik bilan shug‘ullandi.

### **Maqsud Shayxzoda faoliyati.**

Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar muharririyatlarida. 1935—1938 yillarda esa Fanlar Qo‘mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim. 1938-yildan Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutining o‘zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida dotsent vazifasida xizmat qilgan. Yuqori malakali kadrlar tayyorladi. Shoirning adabiy faoliyati 1929 yildan boshlandi. Uning «O‘n she‘r» (1932), «Undoshlarim» (1933), «Uchinchi kitob» (1934), «Jumhuriyat» (1935) to‘plamlarining nashr etilgan.

### **She‘riy to‘plamlari.**

Urush yillarida shoir butun ijodiy quvvatini, qalb haroratini dushman ustidan g‘alaba qozonishga safarbar etdi. Urushning birinchi kunlaridanoq jang qahramonlarini ulug‘lovchi. Front orqasidagi kishilarning fidokorona mehnatini ifodalovchi «Kurash nechun» (1941). «Jang va qo‘shiq» (1942), «Kapitan Gastello» nashr etildi. «Jaloliddin Manguberdi» (1944) tarixiy dramasi va boshqa qator publitsistik asarlarini yaratdi.

### **Maqsud Shayxzoda tomonidan yozilgan doston.**

1958 yili adibning ko‘hna va ayni chog‘da navqiron Toshkent shahriga bag‘ishlangan, uning tarixi. O‘tmishdagi madaniyat va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi «Toshkentnoma» lirik dostoni yaratildi. Iste‘dodli dramaturg 1960 yilda yozgan «Mirzo Ulug‘bek» tragediyasida buyuk o‘zbek munajjimi va ma‘rifatparvar podshosi obrazini yaratdi.

### **Tarjimalari**

Shayxzoda Pushkinning «Mis chavandoz», Lermontovning «Kavkaz asiri», Mayakovskiyning «Juda soz» dostonlari va ko‘plab she‘rlarini. Shekspirning «Hamlet», «Romeo va Juleta» tragediyalari va sonetlarini, Nozim Hikmatning she‘rlarini, ozarboyjon shoirlari asarlarini o‘zbek tiliga ag‘dardi. Shayxzodaning o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti, xususan. Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U filologiya fanlari nomzodi, dotsent ham edi. Shayxzoda asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shoir tarjima jarayonida qardosh xalqlar va jahon adabiyoti namoyondalarining mahorat maktabidan ta‘lim olib, ilg‘or an‘analarini o‘zida mujassamlashtirgan she‘rlar yozgan.

Shayxzodaning yozuvchilik va ijodkorlik zehning o‘tkirliigi yana bir bor isbotlanadi. Maqsud Shayxzodaning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan yana bir ulkan hissasi “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasidir. Tragediya 1964 yili yoziladi, o‘sha yili bu asar Hamza teatri sahnasida qo‘yiladi, keyinchalik uning asosida kinofilm yaratiladi. Shayxzoda adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali qalam tebratib,

o‘zbek xalq og‘zaki ijodining Fozil shoir singari namoyandalari, “Alpomish“, “Shirin bilan Shakar“ kabi asarlari, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Sh.Rustaveli, A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, A.N.Ostrovskiy, T.G.Shevchenko, A.P.Chexov singari namoyandalariga bag‘ishlangan asarlar yezadi.

Pedagog olim va shoir sifatida esa talaygina shoir, adabiyotshunos va tanqidchilar avlodining yetishib chiqishiga munosib hissa qo‘shadi. Maqsud Shayxzoda yuksak ilm egasi edi. Ayniqsa, u o‘zbek mumtoz adabiyotini chuqur bilar edi. 1941 yilda Toshkentda nashr etilgan “Genial shoir” to‘plami adabiyotshunos olim Shayxzodaning Navoiy ijodiga oid ilmiy maqolalaridan tashkil topgandir. Navoiy she‘riyatining bu chuqur ilmiy tadqiqi navoiyshunoslikda hamisha alohida o‘rin egallab qoladi. Maqsud Shayxzodaning butun ijodi chuqur siyosiy publitsistik ruh bilan to‘la. Uning she‘riy, dramatik asarlari qaysi mavzuga bag‘ishlangan bo‘lmasin, zamona bilan hamohangdir. Shuning uchun ham ijodkorning shu tipdagi bevosita publitsistika janrida xizmat qilishi tasodifiy hol emas. Uning zo‘r badiiy janrga ega bo‘lgan publitsistik maqolalari va nutqlari ushbu iste‘dodli adib ijodining mazmundorligi va rang-barangligidan yorqin nishonadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y.
2. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972 y. - 179 b.
3. G‘afurov I., O‘rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975 y. - 215 b.
4. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
5. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1999 y. – 25 b.
6. Shayxzoda Maksud. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, “Nihol“, 2008. - 28 b.

## Metodikaning zamonaviy ko‘rinishlari

### Qoraqalpogiston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani

#### 1-sonli kasb-hunar maktabi metodisti

Fayzullayeva Zulfiya Ikmetovna

#### ANNOTATSIYA

Tabiat va jamiyat hodisalarining, jarayonlarining mohiyatini bilish, ularning o‘ziga xosliklarini, jihatlarini, belgi-xususiyatlarini aniqlash va ular haqida ob‘yektiv ilmiy-falsafiy g‘oyalar, umumlashmalar chiqarish faqat muayyan tadqiqot metodlarini qo‘llash orqali amalga oshadi. Metod umumiy-falsafiy ma‘noda qo‘llanishidan tashqari u tor (xususiy) ma‘noda ham qo‘llanadi. Falsafiy metod barcha fanlarga xos bo‘lib, dialektik metod nomi bilan yuritiladi. Dialektik metod mavjud fanlar uchun metodologiya – metodologik asos vazifasini o‘taydi. Hozirda metodologiya fanlarda qo‘llanadigan xilma-xil metodlar, tahlil usullari haqidagi ta‘limot emas, balki tadqiqotchining tadqiq manbaini qanday tushunishini, unga qanday yondashishini, tadqiqotdan qanday maqsadni ko‘zlashini anglatadi. Har bir metod qanday metod – falsafiy yoki fanga oid bo‘lishidan qat‘iy nazar har birining ish olib borish metodikasi – tadqiq manbaini tekshirish usuli bo‘ladi. Metodika tadqiqotchining amaliy ishlash sistemasi bo‘lib, u faktlarni to‘plash, o‘rganish, umumlashtirish usullarini nazarda tutadi.

**Kalit so‘zlar:** metod, falsafiy metod, xususiy metod, metodologiya, metodika.

**KIRISH** Har bir fan kabi tilshunoslik fani ham tarixiy taraqqiyoti davomida lisoniy hodisalarni o‘rganishda, tadqiqot ob‘ektini (manbaini) ilmiy tahlil qilib, uning ichki “sirlarini”, muayyan jihatlarini ochishda, tabiatini, tarkibini aniqlashda, ilmiy xulosalar chiqarishda muayyan metodlar asosida ish olib boradi. Bu – mutlaqo tabiiy. Chunki metod tadqiqot manbaining (ob‘ektining) biror jihatini, tomonini (qismini, bo‘lagini) o‘rganish, aniqlash, bilish usulidir. Boshqacha aytganda, tabiat va jamiyat hodisalarining, jarayonlarining mohiyatini bilish, ularning o‘ziga xosliklarini, jihatlarini, belgi-xususiyatlarini aniqlash va ular haqida ob‘ektiv ilmiy-falsafiy g‘oyalar, umumlashmalar chiqarish faqat muayyan tadqiqot metodlari faolligida, ularni qo‘llash orqali amalga oshadi. Demak, metod fanning mavjudligi, uning ajralmas tarkibiy qismi, mantiqiy bo‘lagi (komponenti) bo‘lgan ilmiylik degan tushunchaga xizmat qiladi. U fan taraqqiyotini ta‘minlaydi, fanning ijtimoiy ongning qudratli bir qismi, turi ekanligini asoslaydi, unga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI** Aytish mumkinki, har bir fan muayyan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishda, ta‘limotlar yaratishda

bevosita asos bo‘lib xizmat qiluvchi qator faktlar, hodisalarga ega bo‘lishidan tashqari u ushbu faktlarni tadqiq va tahlil qiluvchi metodlarga ham ega bo‘lishi shart. Demak, har bir fanning mavjudligi, xulosalari, faolligi uning tadqiqot ob‘ekti (manbai), tadqiqot maqsadi va, ayni vaqtda, tadqiqot metodlari bilan belgilanadi, o‘lchanadi. Shunday ekan, fandagi ilmiylik prinsipi uchun xizmat qiladigan metod nima? Metod termini nimani anglatadi? Nimani ifoda etadi? degan savolning tug‘ilishi mantiqiydir, tabiiydir. Metod etimologik jihatdan grekcha (methodos) so‘zidan olingan bo‘lib, “tadqiqot”, “o‘rganish” degan ma‘noni anglatadi.

**NATIJARLAR** Metod bilish nazariyasiga, bilish nazariyasi tamoyillari (prinsiplari)ga ko‘ra voqelikka yondashish – tabiat, jamiyat va fikrlash jarayonini – tafakkurni bilish usulidir. Binobarin, metod ushbu falsafiy ma‘noda ob‘ektiv voqelikning har qanday hodisa va jarayonlarini bilish, tushuntirish va talqin qilish yo‘lidir. Ayni vaqtda metod umumiy – falsafiy ma‘noda qo‘llanishdan tashqari u tor (xususiy) ma‘noda ham qo‘llanish imkoniyatiga ega. Bu holda u muayyan fanga oidligi bilan, ayni fanning tadqiqot ob‘ektini (manbaini) tahlil qilish bilan muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Demak, metod maxsus, xususiy, sohaviy metod sifatida turlicha fanlarda turlicha bo‘lishi bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, metod umumiy va xususiy, falsafiy va sohaviy ko‘rinishlarga egaligi bilan xarakterlanadi. Xullas, metod mohiyatan falsafiy va fanga oid “qurol” sifatida mavjudligi bilan o‘zaro dialektik munosabatda, bog‘liqlikda bo‘ladi. **MUHOKAMA** Falsafiy metod barcha fanlarga xosligi, barcha fanlar uchun umumiyliigi bilan nisbiy mustaqillikka, alohidalikka ega bo‘lib, u dialektik metod nomi bilan yuritiladi. Mazkur metod muayyan fanning ilmiy-tadqiqot metodidan farqli o‘zining keng qamrovligi, barcha fanlar doirasida ish olib borishi bilan alohida muhim ahamiyatga egadir. Prof. H.Ne‘matovta‘kidlaganidek. “... dialektik bilish tadqiq manbai mohiyatiga bosqichma-bosqich uzluksiz chuqurlasha borish, soddaroq (oddiyroq) mohiyatdan murakkabrog‘iga qarab siljish demakdir” [1]. Shuningdek, ayni metodning qayd etilgan muhim, asosiy jihatlari qatorida uning ilmiy izchillik prinsipiga qat‘iy amal qilish g‘oyasi ham turadi. Aytilganlarga ko‘ra, dialektik metod jamiki fanlar uchun metodologiyametodologik asos vazifasini o‘taydi. Boshqacha aytganda, umumfalsafiy metod – dialektik metod maxsus ilmiy metodlarga, ya‘ni, turli fanlarga oid metodlarga ta‘sir qiluvchi umumiy ta‘limot bo‘lgani uchun uni metodologiya, ya‘ni, ilmiy tadqiqot usuli bo‘lgan metodlar haqidagi ta‘limot deb yuritadilar [2]. Ammo hozirgi kunda (davrda) metodologiya, ilmiy tadqiq metodologiyasi ma‘lum bir fanda qo‘llaniladigan xilma-xil metodlar, tahlil usullari haqidagi ta‘limot emas, balki tadqiqotchining tadqiq manbaini, ob‘ektini qanday tushunishi va unga qanday yondashishini, tadqiqotdan qanday maqsadni ko‘zlashi,

boshqacha aytganda tadqiqotchining dunyoqarashi nazarda tutiladi [3]. Aniq aytadigan bo'lsak, metodologiya, birinchidan, tadqiqotchining o'z tadqiq manbai haqida qay turdagi bilimlarni hosil qilishga intilishi, bilishning qaysi turi bilan shug'ullanishidir.

**XULOSA** Buni bir oddiy hayotiy misol bilan tushuntirishga intilaman. Tilning turli qirralari haqida turli usullar (metodlar) bilan hosil qilingan bilimlar va ochilgan qonuniyatlar bir katta binoning old, orqa, yon, ust tomonlaridan olingan suratlari bilan qiyoslanishi mumkin. Bu fotosuratlar bir-biriga mutlaqo o'xshamasa-da, ularning barchasi bitta zotda – bir binoning shaklida birlashadi; bu fotosuratlar bir-birini to'ldirib, bino shakli haqida bilimlarimizning mukammal bo'lishiga xizmat qiladi. Binoning to'rt tomonidan suratini chizgan olimlarning birortasi ham xato yoki noto'g'ri ish qilmagan. Xatoga binoning bir tomonidan olingan tasvirini (tilning bir qirrasini haqida ma'lum bir metod bilan o'rganiladigan qonuniyatni) binoning o'zi bilan tenglashtirishdadir – kim bunga yo'l qo'ygan bo'lsa, albatta, xato qilgan bo'ladi” Xulosa shuki, metod – ilmiy tadqiq metodi ob'ektiv borliq hodisalarining, predmetlarining muayyan xususiyatini (jihatini) bilish, o'rganish usulidir.

#### REFERENCES

1. H.Ne'matov. Ilmiy tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari. – Buxoro, 2006, 119-bet.
2. S.Usmonov. Umumiy tilshunoslik, Toshkent, 1972, 176-bet.
3. Qarang: H.Ne'matov. O'sha asar, 68-bet.
4. H.Ne'matov. O'sha asar, 68-69-bet.
5. S.Usmonov. O'sha asar, o'sha bet.
6. A.Shermatov., B.Choriyev. «Umumiy tilshunoslik» kursidan mustaqil ishlar. T., 1989, 70-bet.
7. H.Ne'matov. O'sha asar, 119-bet.

**OSKAR UAYLDNING “DORION GREYNING PORTRETI” VA  
ISAJON SULTONNING “BOQIY DARBADAR” ROMANLARIDA  
MIFOLOGIK MOTIVLAR**

**Buxoro davlat instituti  
mustqil izlanuvchisi D.S.Ruziyeva**

**Annotation:** Intellectual work, the philosophical content and concept of works of art, the combination of science and art, the creation of literary works of science, artists, craftsmen, brochures or composers, the interpretation of works of art, including verses and verses. are works that arise from a mixture of imperialist occupation.

**Аннотация:** В статье рассматривается эволюция интеллектуального романа на примера эпоса Алигьери Данте « Божественная комедия » одного из шедевра мировой литературы. Также представление философское и религиозное мировоззрение художника и его взгляды на проблему выражения э этом провидение.

**Keywords:** Customs, divine–enlightening, civilization, socio-economic development, interethnic elations Intellectual novel, imperialist.

Oskar Uayldning “Dorion Greyning portreti” asari o‘ziga xos tasvir yo‘siniga ega. Unda yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat, insonni tubanlikka tortuvchi illatlar aks etgan, asarning mazmun-mohiyati, qahramonlarning nutqi, xatti-harakatlari ko‘p hollarda portret badiiy detali orqali ochib beriladi. Rassom Bezil Xolluordi tomonidan chizilgan portret asarning so‘ngiga qadar asosiy detal bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, ushbu detal ham rassom Xolluordning ichki kechinmalari ham Dorion Greyning umr bo‘yi qilgan gunohlarini ko‘rsatuvchi qalb o‘zgarishlarini ifodalovchi badiiy majoziy ko‘zgu sifatida xizmat qiladi. ushbu portret asar so‘ngida rassom Xolluordning ham, Dorion Greyning ham bevaqt o‘limiga sabab bo‘ladi. Ushbu asardagi portret detali inson asl qiyofasini ko‘rsatuvchi vijdoniy ko‘zgu vazifasini bajaradi.

Portret insonning ruhiy olamini ko‘rsatuvchi muhim badiiy detal sifatida namoyon bo‘ladi. Dorianning hayotidagi har bir voqea ro‘y berishi bilanoq, ularning xabari portretga yetib keladi. Portretda tirik Dorianning qilg‘iliklari aks etmaydiyu, uning ruhiyatida, qalbid sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar aks etadi. Dorian xomlik qilib sodir etgan har bir nojo‘ya ishning muhri suratga tushadi. Sekin-asta surat aql bovar qilmaydigan darajada badbashara bo‘lib boraveradi. Yozuvchi ana shunday

badiiylik unsurlari asosida asarning g‘oyaviy ahamiyatini asoslay boshlaydi. O. Uayld shaxs sifatida afsonaviy mohiyatga ega bo‘lib, asarlarini qadimgi afsona, rivoyat, ertak, doston aytuvchi (skazitel) iste’dodli kishilar yoki baxshilar xarakteridagi ijodkor bo‘lganligini ko‘p adabiyotshunoslar, ijod ahli tomonidan qayd qilingan.<sup>1</sup>Shu ma’noda, O. Uayld asarlarining mag‘iz-mag‘iziga mifologik poetika unsurlari singib-o‘zlashib ketganligini sezish mumkin bo‘ladi. Roman mifologik tizimida eng avvalo, hikmatli fikrlar, donishmand o‘gitlar turkumi muhim o‘rin tutadi. Intellektual asar mohiyatan ziyolilar, olimlar, san’atkorlar obrazi, san’at va ilmning badiiy talqinlari bilan bevosita bog‘liqligining o‘zi ularda hikmatomuzlik fazilati yetakchilik qilishi tabiiy hol hisoblanadi. Maqol, hikmat, naql, o‘git, tanbeh ruhida asarlar esa mifologiyaning, xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi va eng ommabop janrlari hisoblanadi.

“Dorian Greyning portreti” romanining dastlabki sahifalaridan uning hikmatomuzchilik fazilati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi asar boshlarida (I bobda) Dorianning adabiy portretini Lord Henri nigohi orqali chizib ko‘rsatadi:

“Lord Henry looked at him. Yes, he was certainly wonderfully handsome, with his finely curved scarlet lips, his frank blue eyes, his crisp gold hair. There was something in his face that made one trust him at once. All the candour of youth was there, as well as all youth's passionate purity. One felt that he had kept himself unspotted from the world.”<sup>2</sup> Mazkur portretida komil shaxs, pokiza qalb kishi ma’naviyati namoyon ekanligini sezish mumkin. Dorian Grey yuksak madaniyatli yigit sifatida dunyo adabiyoti, og‘zaki ijod, falsafiy qarashlar, mashhur adabiy va tarixiy timsollarni chuqur tafakkur bilan biladigan yetuk ma’naviyat sohibi ekan, u insonning yuz ko‘rinishi ko‘rkam bo‘lsa, ichki olami, ruhiy dunyosi ham ko‘rkam va ibratli bo‘ladi, degan fikrda edi. Uning Gerakl, Odissey, Vergiliy, Faust, Doktor Faustus kabi afsonaviy qahramonlar faoliyatini ancha yaxshi bilishi boisidan unda hayotga donishmandona qarash, voqeliklardan hikmatli xulosalar chiqarish fazilati shakllangan. Buni ular orasidagi hikmatli qarashlar, fikr-tafakkur orasidagi mushtaraklik mazmunida ham kuzatish mumkin.

Lord Henri xushbichimligi va samimiy yigit Dorian Greyga qiziqib qoladi, u bilan insoniy munosabatlarini mustahkamlash uchun intiladi. U Dorianning kimligini, avlodini, o‘zining yoqimli yigit ekanligini bilib, Lord Henri Dorianning

<sup>1</sup> Вл. А.Луков, Н.В.Соломатина. Феномен Уайльда. Тезеурусный анализ. “Наука”, Москва, 2007. Стр. 57-67

<sup>2</sup> Oscar Wilde. The Picture of Dorian Gray. <http://www.aliceandbooks.com/> - P.16 (Bundan keying misollar shu asardan olingan.)

ota-onasi bevaqt vafot etganini bilib, yetimlikda bemehr qariyaning zulmi ostida yashagan o'g'ilning qismati, degan mulohazaga boradi. Bularning bari g'aroyib, yigitga ajib bir qiyofa baxsh etadi, uning maftunkorligini yanada oshiradi". Lord Henri bundan "a tragedy that possesses artistic elements of beauty crosses our lives" (P.86) degan xulosa chiqaradi, – eng kamsuqum, eng arziyas bir gulning gullashi uchun ham dunyolar to'lg'oq dardini boshdan kechirmaklari zarur!

Bu mulohazalar va go'zallikning paydo bo'lishi naqadar qiyin bo'lsa-da, baribir mahv bo'lishi ham hayot haqiqati ekanligi to'g'risidagi falsafiy xulosa zuhur etadi. Ular Dorian Greydek yoqimli yigitning buzuq muhit bag'rida yovuz kimsaga, baxtsiz odamga aylanishi kabi murakkab qismatiga ishora yoki bashorat hisoblanadi. Yozuvchi Dorianning mukammal axloqiy go'zalligi va xushbichim xarakter talqinida olis tarix bag'rida – qadim Yunon mifologiyasidagi go'zallik va ishq timsoli bo'lgan Afrodita va uning marmar haykali timsolidan foydalangan.

Go'zallik va mukammallikni yovuzlikning, hasadgo'ylikning yemirilishi, oyoqosti qilinishi kabi azaliy falsafiy mohiyat mazkur roman g'oyaviy pafosining markaziy masalasi sanaladi.

Roman boshida muqaddima qilib, unda go'zallik falsafasining teran va notakror jihatlari talqin etilgan. Uayld romanining birinchi jumlasini "The artist is the creator of beautiful things" (P.3) deyilgan. Bu kalomda mazkur asar falsafiy-g'oyaviy ko'lamining asl ma'nosi, ya'ni, javhari o'z ifodasini topgan. Qolaversa, adabiyot va san'atning, barcha san'atkorning bosh maqsadi ham shu: hayotdagi, inson faoliyatidagi go'zallikni, go'zal tuyg'u va go'zal faoliyatni ulug'lash!

Uayld "beauty" mohiyatiga shu go'zallikdan ham ko'ra kengroq falsafiy-ijtimoiy ma'no va vazifa yuklagan.

"Those who find ugly meanings in beautiful things are corrupt without being charming" (P.3), - deb yozadi adib yana. – This is a fault". Bu o'rinda yana "go'zallik" bir ma'noda emas, o'zida ancha keng falsafiy ma'no tashiydi. Bu fikr yetakchi qahramon Dorian Grey nuqtai nazaridan aytilayotgani ham aniq. Go'zallikdan, yana iymon, e'tiqod, adolat yoki rahm-shafqat axloqidan ayb topuvchilar, bu sifatlarga amal qilmovchilar hayotda "yoqimli" bo'lmaydilar, buning gunoh ekanligini xayolgayam keltirmaydilar. Bu Greyning yon-atrofidagi munofiqsifat odamlarga nisbatan axloqiy bahosidir. Dorian dastlab tashqi ko'rinishining yoqimligi, samimiy va rahm-shafqatli ma'naviyati bilan barchaga ibrat edi. Ammo, oxir-oqibatda u nomunosib yo'llargayam qadam qo'yadi, hatto, qotilga aylanadi. Yunon mifologiyasi, uning ezgu qalb, go'zallik va ezgulik namunasi bo'lgan qahramonlari (Gerakl yoki Afrodita kabi) ta'sirida hayotni va odamlarni shunday oliyjanob fazilatlar sohibi sifatida ko'rishni istaydi.

Romanning birinchi bobidayoq hikmatomuzlik fazilati yaqqol namoyon bo'ladi. Dorian Greyning g'aroyib portretini chizgan iste'dodli rassom Bezil Xolluord do'sti Grey xarakteridan kelib chiqib, aytadi:

Mana, rassom Xolluordning yana bir hikmatomuz fikri: "The ugly and the stupid have the best of it in this world. They can sit at their ease and gape at the play. If they know nothing of victory, they are at least spared the knowledge of defeat. They live as we all should live — undisturbed, indifferent, and without disquiet."(P.6)

Mazkur aforizm mohiyati ham avvalo, Grey xarakter – tiynati ifodasi bilan bog'liq bo'lib, shuningdek, u umumaxloqiy ahamiyatga ega. Bu o'rinda "badbashara" so'zi haqorat, kamsitish ma'nosida emas. "Badbashara" so'zida Grey kabi murakkab xarakterli kishilarga xos xususiyatlar umumlashtirilgan. Bundaylar boshqalarning qahramonligiga ham, aziyatiga ham beparvo. Bu bilan loqaydlik, boshqalar dardi yoki chiroyli va samimiy bo'lsa-da, Dorian Grey xarakterida o'zgalar qismatiga beparvolik xususiyatlari mavjud.

Romanning murakkab xarakterli timsollaridan biri Lord Henrining Dorian Grey bilan suhbatida bildirgan mulohazalarida falsafiy hikmatomuzlik fikrlari aks etgan:

"...if one man were to live out his life fully and completely, were to give form to every feeling, expression to every thought, reality to every dream—I believe that the world would gain such a fresh impulse of joy that we would forget all the maladies of mediaevalism, and return to the Hellenic ideal—to something finer, richer than the Hellenic ideal, it may be!" (P.18)

Romanda ko'p obrazlarning faoliyatida, o'z yo'lini topishida muhim rahnamolik ta'siriga ega bo'lgan Lord Henrining falsafiy-ijtimoiy qarashlarida hikmat mohiyati aks etadi.

"I don't desire to change anything in England except the weather," – he answered. "I am quite content with philosophic contemplation. But, as the nineteenth century has gone bankrupt through an over-expenditure of sympathy, I would suggest that we should appeal to science to put us straight. The advantage of the emotions is that they lead us astray, and the advantage of science is that it is not emotional". (P.36)

**Адабиётлар руйхати:**

1. Куръони Карим. Ўзбекча изохли таржима. Таржима ва изохлар. Алоуддин Мансур. «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни. Тошкент. 1992, 15-бет.

2. Шавкат Мирзиёев Милий тараққиёт йналишни йўналтиришга каратилган қатъият билан давом эттириб, янги вақтга кўтарамиз. 1-жилд. Тошкент- «Ўзбекистон»-2018, 18-бет

3. Миллатлараро муносабатлар соҳасида Ўзбекистон Республикаси давлат сиёсати концепциясини тасдиқлаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси фармони). «Халқ сўзи», 2019 йил 19-ноябр.

4. Адабиёт назайяси. Исажон Султон. -Т.: Ўқитувчи, 1986

**"Прагматическая функция метафор в русскоязычных текстах:  
анализ различных жанров"**

**Докторант 1 курса Каршинского  
государственного университета  
Шукурова Зулхумор Бахтияровна**

**Аннотация**

Данная статья исследует роль метафор в русскоязычных текстах различных жанров с прагматической точки зрения, как метафоры используются для достижения коммуникативных целей и воздействия на аудиторию. В статье анализируются примеры метафорических конструкций из различных текстов и представляются выводы о том, как метафоры способствуют эффективной коммуникации и интерпретации текстов.

**Annotation**

This article explores the role of metaphors in Russian-language texts of various genres from a pragmatic point of view, how metaphors are used to achieve communicative goals and influence the audience. The article analyzes examples of metaphorical constructions from various texts and presents conclusions about how metaphors contribute to effective communication and interpretation of texts.

Метафора является одним из основных риторических приемов, который позволяет передать сложные и абстрактные концепции, а также вызвать эмоциональный отклик у читателя или слушателя. Важно отметить, что метафоры не только украшают текст, но и выполняют определенные коммуникативные функции, влияя на восприятие сообщения и его интерпретацию.

Анализ прагматической функции метафор в русскоязычных текстах различных жанров позволит выявить, какие особенности использования метафор присущи разным типам текстов. Например, в художественной литературе метафоры могут создавать образы и атмосферу произведения, в то время как в публицистике они часто используются для убеждения читателя или формирования определенного мнения.

Исследование метафор в рекламных текстах также представляет интерес, поскольку метафорические образы часто используются для привлечения внимания к продукту или услуге, а также для формирования определенного

имиджа бренда. Понимание того, какие метафоры эффективны в рекламе, может быть полезно для маркетологов и рекламистов.

Таким образом, анализ прагматической функции метафор в различных жанрах русскоязычных текстов позволит не только лучше понять специфику использования этого языкового явления, но и выявить его воздействие на аудиторию и коммуникативные цели авторов. Дальнейший анализ примеров метафор в различных текстах поможет более глубоко проникнуть в мир языка и его возможностей в коммуникации.

В классических и современных русских литературных произведениях метафоры используются для создания образов, передачи эмоций и мыслей героев. Например, в поэзии Анны Ахматовой метафоры служат для выражения глубоких чувств и переживаний. В романах Федора Достоевского метафоры усиливают тематику и создают атмосферу напряженности. Исследования таких произведений помогают понять, как метафоры способствуют формированию образов и эмоциональной окраске текста.

В романах Льва Толстого метафоры часто используются для подчеркивания философских и нравственных аспектов повествования. Например, в "Анне Карениной" метафоры помогают передать сложные внутренние конфликты героев и их внутренние переживания.

В современной русской литературе такие авторы, как Татьяна Толстая или Владимир Сорокин, также активно используют метафоры для создания уникальных образов и передачи своего взгляда на мир.

Исследование метафорических приемов в литературе позволяет не только глубже понять тексты и творчество писателей, но и расширить наше представление о возможностях языка и его способности отразить сложные человеческие эмоции, мысли и переживания. Литературные произведения становятся особым полем для изучения метафор и их воздействия на читателя, открывая новые грани языка и художественного выражения.

В журналистских текстах метафоры используются для убедительного аргументирования точки зрения автора и привлечения внимания читателей. Например, в статьях о политике метафоры могут служить для создания образов лидеров или описания сложных процессов. Анализ публицистики позволяет выявить, какие типы метафор наиболее эффективны для достижения целей авторов.

В публицистике метафоры также могут использоваться для вызова эмоционального отклика у читателей и создания определенной атмосферы текста. Например, в статьях о социальных проблемах метафоры могут помочь

читателям лучше понять сложные аспекты обсуждаемой проблемы, а также вызвать сочувствие или возмущение.

В современной публицистике метафоры широко используются для анализа политических событий, экономических процессов, культурных явлений и других аспектов общественной жизни. Они помогают авторам выразить свое видение событий и воздействовать на мнение читателей.

Исследование метафор в журналистских текстах позволяет не только понять, каким образом они влияют на восприятие информации, но и выявить особенности стиля конкретных авторов, их мировоззрение и ценностные установки. Метафоры в публицистике играют важную роль в формировании общественного мнения и воздействии на аудиторию через средства массовой информации.

В рекламных текстах метафоры используются для создания образов бренда, привлечения внимания потребителей и формирования эмоциональной связи с аудиторией. Например, в телевизионной рекламе метафоры часто используются для вызывания положительных эмоций у потребителей. Исследование эффективности метафор в рекламе помогает понять, какие приемы наиболее успешны в привлечении внимания к продукту или услуге.

В рекламе метафоры играют ключевую роль в создании образа бренда и формировании его уникального стиля. Метафоры позволяют передать сложные идеи или концепции в простой и запоминающейся форме, что делает рекламу более привлекательной для потребителей.

Часто метафоры в рекламе используются для ассоциаций с определенными эмоциями или ценностями, которые связываются с продуктом или услугой. Например, метафора "как пушистое облако" может быть использована для передачи ощущения мягкости и комфорта, что может быть связано с продажей подушек или одежды из мягких материалов.

Исследования показывают, что рекламные кампании, в которых используются метафоры, чаще всего вызывают положительные эмоции у потребителей и имеют больший шанс запомниться. Метафоры помогают создать эмоциональную связь с аудиторией, что способствует увеличению узнаваемости бренда и повышению лояльности потребителей.

Таким образом, использование метафор в рекламе является эффективным способом привлечения внимания к продукту или услуге, формирования позитивного восприятия бренда и установления долгосрочных отношений с потребителями.

В научных текстах, блогах, социальных сетях и других современных жанрах метафоры играют разнообразные роли в коммуникации. Например, в научных статьях метафоры могут использоваться для упрощения сложных понятий или подчеркивания ключевых аспектов исследования. Исследование различных жанров позволяет выявить особенности использования метафор в различных контекстах и сферах коммуникации.

В научных текстах метафоры могут быть использованы для создания аналогий и ассоциаций, что помогает читателям лучше понять сложные темы и концепции. Например, в области науки о мозге метафоры часто используются для объяснения работы нейронов или химических процессов, делая информацию более доступной и понятной для широкой аудитории.

В блогах метафоры могут использоваться для создания интересного контента и привлечения внимания читателей. Они могут помочь авторам выразить свои мысли и идеи более ярко и запоминающе, делая контент более привлекательным для аудитории.

В социальных сетях метафоры часто используются для передачи эмоций и создания эмоциональной связи с аудиторией. Например, в мемах или шутках метафоры могут использоваться для юмористического эффекта или передачи определенного настроения. Метафоры являются мощным инструментом коммуникации, который может быть использован в различных жанрах для достижения различных целей и эффектов.

Метафоры также широко используются в рекламе для создания запоминающихся образов и ассоциаций с продуктом или брендом. Они могут помочь усилить эмоциональное воздействие рекламы на потребителя и вызвать желаемую реакцию.

В литературе метафоры играют важную роль в создании образов и символики, делая текст более глубоким и многозначным. Они помогают авторам передать сложные эмоции, мысли и концепции через образы и ассоциации, делая произведение более интересным и проникновенным.

В повседневной жизни метафоры также широко используются для объяснения сложных понятий или ситуаций, делая их более понятными и доступными для общения с другими людьми. Например, выражение "жить как кошка с собакой" может быть использовано для описания неприятной соседской ссоры.

Исследование прагматической функции метафор в русскоязычных текстах различных жанров позволяет не только понять, каким образом метафоры влияют на аудиторию и цели авторов, но и раскрывает глубинные

смыслы и символику, заложенные в этих образах. Анализ литературных произведений, публицистики, рекламы и других жанров помогает выявить специфику использования метафор в различных сферах коммуникации, а также выявить общие закономерности и тенденции в их применении.

Понимание этого явления может быть полезным для лингвистов, литературоведов, журналистов и специалистов по рекламе при создании и анализе текстов, так как оно помогает расширить кругозор, улучшить навыки анализа и интерпретации текстов, а также повысить эффективность коммуникации с различными аудиториями. В итоге, изучение прагматической функции метафор способствует более глубокому пониманию языка, культуры и общества в целом.

### **Использованная литература**

1. Рассел Д., Коссак Л. "Метафорический словарь русского языка".
2. Лакофф Дж., Джонсон М. "Метафоры, которыми мы живем".
3. Григорьев Д., Смирнов И. "Метафоры в современном русском языке".
4. Крысин Л. "Метафорическая модель языковой картинки мира".
5. Шарков В., Сергеев И. "Метафоры в литературе: теория и практика".

## INFOKOMMUNIKATSIYA TIZIMLARIDA SIGNALLARGA RAQAMLI PARALLEL ISHLOV BERISH USULLARI VA ALGORITMLARINI TADQIQ QILISH

**Berdiyev Nodirxuja Shavkat o'g'li**

Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti Magistranti

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada infokommunikatsiya tizimlarida signallarga raqamli parallel ishlov berish usullari va algoritmlarini tadqiq qilish haqida bir qator ilmiy mulohazalar o'rin olgan bo'lib bu ko'pchilik uchun foydali bo'ladi degan umiddamiz.

**Kalit so'zlar:** signallar, infokommunikatsiya, ishlov berish, muhit, raqamli olam, parallel, so'zlashuv, tadqiqot, yengillik.

Infokommunikatsiya tizimlarida signallarga raqamli parallel ishlov berishda Avvalo fizik tashuvchilardan axborotni chiqarib olish uchun asosiy vosita bu signal hisoblanishi bilib olish kerak bo'ladi. Signallarga misol sifatida telefon so'zlashuvini tashkil qiladigan mikrofon zanjiridagi tok, tasvirlani nurining yorqinligi orqali telivezordan qabul qilish, radiouzatgish antenasidagi tok va boshqa ko'pgina misollarni keltirish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, signal bu – amaliy jihatdan ko'p hollatlarda vaqt ichida oquvchi obektiv jarayondir.

Axborot hisoblash tizimlarida o'zi tomonidagi jarayonning nazariyasini emas balki, signalning analitik ta'rifini matematik modellar yordamida amalga oshirish qaraladi. Ko'pgina hollarda barcha signallar aniq fizik koordinatalarda qiymatlari berilgan funksiya sifatida qaralib kelinadi. Bu ma'noda signallarni bir o'chovli, tekislikda berilgan ikki o'lchovli, uch o'lchovlini keltirish mumkin. Bunday signallarni matematik tavsiflanishi tegishli ravishda bir, ikki, va uch o'zgaruvchi bo'ladi. Albatta bu erda nafaqat skalyar funksiyalarni sifatida foydalanish emas balki ancha qiyin modellarini kompleks va vektor funksiyalarni qulay foydalanish mumkin. Signallarga raqamli ishlov berishdan maqsad turli o'zgartirishlar orqali ularni samaradorlik bilan uzatish, saqlash va axborotni ajratib olishdan iborat. Keying vaqtlarda keng rivojlangan signallarga raqamli ishlov berish usullari bir qator afzalliklarga ega:

- umuman olganda signallarga ishlov berishning xar qanday murakkab algoritmlarini amalga oshirish mumkinligini amalga oshirish mumkinligini va ushbu

signallarga ishlov berish algoritmlarini real vaqtda amalga oshirish imkoniyatini beruvchi elementlar bazasi borligi;

- raqamli qurilmalar yuqori aniqlikda ishlov imkoniyatini beruvchi algoritmlarning yaratilganligi va mavjudligi;

- nazariy jixatdan uzatilayotgan xabarlarini xalaqitbardosh kodlardan foydalanib uzatish va saqlash saqlash natijasida xatosiz qayta tiklash imkoniyatining borligi raqamli signallarga xosdir.

Yuqoridagi afzalliklarni amalga oshirish diskret signallar va elementar zanjirlar xaqidagi asosiy ma'lumotlarga ega bo'lish darajasiga bog'liq. Signallarning kauzal deyiladi qachonki u barcha real signallar vaqt boshlanishida paydo bo'ladigan signallarga aytiladi. Agar signalning qiymati qaysidir vaqt oralig'ida qaytarilsa bunday signallar davriy signallar deyiladi. Bugungi kunda qo'yidagi tipdagi signallarga asosiy e'tibor qaratilmoqda:

- Nutqiy signallar, misol uchun kundalik hayotda ishlatiladigan; - Beomedik signallar;

- Ovozli va audiosignallar;

- Video va telerasmlar;

- Radar signallari.

Tabiatda uchraydigan ko'pgina signallar o'zining analogli formasiga ega bo'lib, vaqt bo'yicha uzliksiz o'zgaradigan va misol uchun ovozli to'lqin ko'rinishida fizik kattaligi bo'yicha ta'riflanadi. Odatda raqamli signallarni qayta ishlashda ishlatiladigan analog signallar bir xil oraliqli vaqt intervalida raqamli ko'rinishga keltiriladi. Ko'pincha raqamli signallarni spektr qiymatlarini olib yoki qo'lay formaga keltirish orqali qayta ishlash interferensiyalardan yoki shumlardan bartaraf etish, signallarni siliqlash, siqish, tanishda katta yordam beradi. Bugungi vaqtda signallarga raqamli ishlov berish ko'pgina, avval analogli usullarda ishlatiladigan sohalarda tashqari yangi analogli qurilmalarda bajarib bo'lmaydigan sohalarda qo'llanilmoqda. Signallarga raqamli ishlov berishning jozibaliligi quyidagi asosiy qulayliklarga bog'langan. Aniqlilikning kafolatlanganligi. Aniqlilik ishlatilgan bitlar soniga qarab aniqlanadi. Mutloqo aks ettirish. Raqamli yozuvga signallarga raqamli ishlov berish usullarini qo'llash orqali signal sifatiga zarar etkazmagan holda ko'p marta nusxalash yoki aks ettirish mumkinligi. Moslashuvchanlik. Signallarga raqamli ishlov berish tizimi orqali qurilmani o'zgartirmasdan xar xil funksiyalarni bajarilishini qayta dasturlashtirish mumkinligi. Yuqori darajadagi unumdorlik. Signallarga raqamli ishlov berishni signallarni analogli qayta ishlab bo'lmaydigan vazifalarini bajarilishida qo'llash mumkin. Misol uchun chiziqli fazoviy xarakteristikalarini olgan holda murakkab adaptiv

filtrlashlarni amalga oshirish masalalarida qo‘llanilishi. Tezlik va xarajatlar. Keng polosali signal uchun signallarga raqamli ishlov berishning loyihalari qimmat bo‘lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda keng polosali signallarni qayta ishlashda ishlatiladigan tezkor ATSP (analograqamli/raqamlialanalogli keltirgichlar) lar yo qimmat yoki keng polosali signallarga kerakligicha ishlov berishning imkoniyatining etishmasligidadir. Ishlov berish vaqti. Signallarga raqamli ishlov berish metodikasi yoki raqamli ishlov berishning dasturiy vositalaridan foydalanish bilan tanish bo‘lmaslik qo‘yilgan vazifalarni sifatli bajarish juda ko‘p vaqtni yoki umuman bajarib bo‘lmasligi mumkin. Signallarga raqamli ishlov berishdan maqsad turli o‘zgartirishlar orqali ularni samaradorlik bilan uzatish, saqlash va axborotni ajratib olishdan iborat. Keyingi vaqtlarda keng rivojlangan signallarga raqamli ishlov berish usullari bir qator afzalliklarga ega:

- umuman olganda signallarga ishlov berishning har qanday murakkab algoritmlarini amalga oshirish mumkinligi va ushbu signallarga ishlov berish algoritmlarini real vaqtda amalga oshirish imkoniyatini beruvchi elementlar bazasi borligi;

- raqamli qurilmalar yuqori aniqlikda ishlash imkoniyatini beruvchi algoritmlarning yaratilganligi va mavjudligi;

- nazariy jihatdan uzatilayotgan xabarlarini halaqitbardosh kodlardan foydalanib uzatish va saqlash natijasida xatosiz qayta tiklash imkoniyatining borligi raqamli signallarga xosdir. Yuqoridagi afzalliklarni amalga oshirish diskret signallar va elementar zanjirlar haqidagi asosiy ma’lumotlarga ega bo‘lish darajasiga bog‘liq. Qo‘llanilish sohalari: Signallarga raqamli ishlov berish (SRIB)— bu zamonaviy elektronikada sohasida tezkor rivojlanayotgan va raqamli protsessorda boshqariluvchi raqamli ko‘rinishdagi axborotlardan tashkil topgan barcha sohalarda qo‘llaniladi. SRIBning qo‘llanilish sohasiga qo‘yidagilarni keltirish mumkin bo‘ladi. Umuman olganda, o‘zining asosiy mazmunida diskret qayta ishlashning matematik apparati qayta ishlashi bo‘yicha analogli signal va tizimlarga o‘xshash. Lekin ma’lumotlar diskretligi bu holatni hisobga olishni talab qiladi, va uning e’tiboga olinmasligi jiddiy xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, diskret matematikasining qator metodlari analitik matematikada analoglarga ega emas. Oxirgi o‘n yilliklarda hisoblash texnikalari tez avj olib o‘sib borayotgan jarayon hisoblanadi. Asosan xalq-xo‘jaligi va barcha ilmiy o‘rganish sohalarida ma’lumotlarga raqamli ishlov berish amaliy usullariga o‘tishi katta sakrash bo‘ldi. Bularni xar xil hisoblash ya’ni kerakli o‘rinlarda turuvchi signallarga raqamli ishlov berish tizimlari texnikalarida qo‘llash, keyingisi

malumotlarni qayta ishlash jarayonida masofadan turib zondlashda foydalanish, med - biologik tadqiqotlarda, aerokosmik va dengiz kemalari qatnovi : aloqa, radiofizika, raqamli optika va bir qator raqamli sohalarini hal qilishda ishlatiladi. Signallarga raqamli ishlov berish– bu hisoblash texnikalarida texnik sifatida va dasturli vositalarda ko‘chishlarni dinamik yozuvchisidir. Signallarga raqamli ishlov berish uchun va shu sohaga tegishlilar xabarlar nazariyasidan foydalanadilar.

Jumladan signalni optimal qabul qilish nazariyasidan va ko‘rinishini bilish nazariyalari kiradi.

Bu jarayonda asosiy vazifasi birinchidan fondagi shovqinlarni va tabiatdagi turli xil tovush signallarini belgilaydi, ikkinchidan signallarni sinflanishini, tenglashtirish va avtomatik aniqlashdan iborat bo‘ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Usmonalievich, Xaydarov Ibroximjon, and Dadajonov Xislatjon Farxodjon o‘g‘li. "MA'LUMOTLARGA TAQSIMLANGAN HOLDA ISHLOV BERISH ALGORITMLARI TAHLILI." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI 3.5 (2023): 14-18.
2. Raximov, Quvvatali. "NEYRON TARMOQLARINING YANGI TURLARINI TAHLIL QILISH." INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS". Vol. 2. No. 4. 2023.
3. O‘rmonov, Davronbek Abdukarimovich. "RIVOJLANGAN DAVLATLARDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA PROFAYLINGDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.11 (2022): 697-703.v
4. Ш.Ш.Тургунов, М.А.Абдурахмонов, А.А. Сирожиддинов. СИСТЕМА АВТОМАТИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРИТОЧНО- ВЫТЯЖНОЙ ВЕНТИЛЯЦИОННОЙ УСТАНОВКОЙ С ПРИМЕНЕНИЕМ ПЛАТФОРМЫ ARDUINO ДЛЯ КОНДЕНСИРОВАННЫ ПРОМЫШЛЕННЫХ ЗДАНИИ. Oriental Renaissance: Innovative, 2 | 12 educational, natural and social sciences ISSN 2181-1784 December 2022.
5. [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz)
6. [ziyonet.uz](http://ziyonet.uz)

## Creating an electronic database of terms used in the field of music and dance

**Ochilova Mekhriniso Razokovna,**  
**Senior teacher of ESP for Interfaculty department,**  
**Bukhara State University**  
[m.r.ochilova@buxdu.uz](mailto:m.r.ochilova@buxdu.uz)

**Abstract.** This article analyzes ways of creating online database and online dictionary in the specialization of music, art and dance. These analyses can be helpful for corpus linguistics and creation of online dictionaries.

**Key words.** Database, electronic dictionary, music and dance sphere, creation

**Introduction.** Over the years, attempts have been made to classify the main methods of formation of new terms. Summarizing the results of these studies, the following main methods can be distinguished:

1) semantic (using a word or phrase of a commonly used language as a term, giving it a new meaning). Compare:

advance in English - move forward in Uzbek,  
retire in English - to retire in Uzbek.

The semantic method of term creation is the most common, moreover, such terms occupy the most important place in the terminology that is being formed to define the concepts of new fields of knowledge and areas of human activity.

2) morphological (creating a new term by means of affixation, combination). Compare:

danceable in English - danceable in Uzbek  
dancegoer in English - participant in a dance course in Uzbek

3) syntactic (terminological phrases).

Compare:

dance hall in English - dance hall in Uzbek  
dance card in English - dance card in Uzbek (the card with the names of the dancers)

4) words borrowed from other languages  
Moulinet in French is "fast spin" in Uzbek.

Another way to create terms is to create abbreviations and special abbreviations, which have become more and more common recently

RLOD < reverse line dance, fig < figure, ftwk < footwork).

R.D. in the classification of dances. Batchelor identified four dance groups:

- dances imitating the movements of the fortress;
- circular dances performed by gradually bending the body forward and backward;
- dances in which performers sway back and forth;
- dances based on the movements of the first three groups"

**Analysis.** The American researcher R. Kraus paid attention to the composition of the participants, purpose, meaning and vocabulary of the dance in the classification of dances. Accordingly, he identified five dance groups: ballet; modern dance; social dance; stage dance; folk dance. L. Grove divides dances into 3 groups: figurative or poetic; descriptive; ritual, ceremonial. "Secret dances", "flowing dances", "magical dances" are being revived in modern psychological schools.

For these purposes, the spiritual experience of ritual dances, as well as its philosophical understanding in ancient texts, is studied and systematized.

Some researchers believe that terminological synonymy is completely unacceptable. Synonymous terms represent the same concepts, the same objects and phenomena of reality. V. P. Danilenko states that "it is characterized by the function of replacing term-synonyms". Examples of dance terminology: a) pirouette - pirouette (360 degree turn) is a term taken from the French language; pas de basque - on de basque (jumping from foot to foot, then stepping); b) hands across and back (English) - moulinet (French) (a cross is a figure of ancient dances: four dancers join the same hands and form a cross; d) terminological combination - abbreviation: diagonally to the center - DTC (from diagonal to center), Open Facing Position - OPF (open position), Line of Dance - LOD (dance line), Body Completes Turn - BCT (full turn).

In historical dance, balance is a dance movement with stepping from one foot to the other, lifting on half toes and bending the body. Balance (from the French word "equilibrium") and pas grave (from the French words "pas" "step", "grave" "heavy", "slow") were added to create the phrase balance minuet. A number of names that appeared in the Middle Ages entered the vocabulary of ballroom dancing for a long time. From them, it is possible to observe how actions have changed, how the same term served to denote different actions in different periods, and sometimes a certain similarity.

The word tour (from the French "tour" "to turn") used to mean a simple movement around the hall during marching dances, now it means turning the body 360 degrees around a vertical axis. In ballroom dancing, a tour means a forced movement around the hall:

- tour de mains (from the French "main" "hand") - turning, holding hands,
- tour sur place (from the French "place" "place") - turn on the spot,
- tour tape (from the French "tape" "slow") - a slow turn on one leg,
- tour en l'air (from the French "en l'air" "air") - a turn in the air (performed in a male dance).

**Conclusion.** The ambiguity of the terms does not allow them to be understood correctly. It is usually said that a term does not need context because it should be understood without context, but this rule cannot be absolute because, as with terminology, context is important. This is especially true for term categories, the so-called categorical ambiguity, the real way to overcome it is always to provide context in the literature or different places of these different terms in the classification system. In the creation of modern dictionaries, giving the rules of polysemy and determining the contextual meaning creates some difficulties, taking into account the fact that the process of uncertainty in terminology is very active, it is necessary to give the words in accordance with the rules of meeting lexical changes. The advantage of electronic dictionaries is that they can give multiple meanings of words. We can observe the presence of so-called "secondary uncertainty" terms in the dance terminology we are studying and analyze the possibilities of their presentation in dictionaries. Artificially introducing foreign terms into the language is not always justified. In such cases, it is necessary to use one's own language capabilities and to pay attention to maintaining the balance between the meaning of the term and the meaning of the term. Often terms that express certain concepts are not available in use. As a result, despite the fact that such concepts are extremely important and relevant, they are deprived of the possibility of wide spread. In the creation of the term, it is a lack of mutual systematicity with the essence of the concept it is supposed to represent.

#### References:

1. Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. - М., 1977. – С.13.
2. Головин Б. Н. Лингвистические основы учения о терминах: Учебное пособие/Головин Б. Н., Кобрин Р. Ю. - М., 1987. – С.51.
3. Bahodirovna, A. M. "Semantic Field and Sema in Uzbek (In the Example of 'Ma'naviyat')". INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, vol. 1, no. 4, Oct. 2022, pp. 77-80, <http://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/view/173>.
4. Sumaira Nawaz, Khaitova Gulshan Bahodirovna, Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. "Explanation of Agricultural Terms in Dictionaries".

Indonesian Journal of Innovation Studies, Vol. 18, May 2022,  
doi:10.21070/ijins.v18i.606.

5. ISLOMOV ELDOR YUSUPOVICH, AHMEDOVA MEHRINIGOR  
BAHODIROVNA. THE ESSENCE OF SPIRITUALITY IN THE UZBEK  
LANGUAGE. XIII МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ  
КОНФЕРЕНЦИЯ " ЯЗЫК И КУЛЬТУРА", Челябинск, 26 апреля 2018 года. -  
P.12-15

## BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Guliston Davlat Universiteti  
Psixologiya va iltimoiy fanlar fakulteti  
3-bosqich talabasi  
**Rajabova Munisa Aminboy qizi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini turli didaktik o'yinlar orqali dars jarayonlariga qiziqtirish yuzasidan turli takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** "O'xshashlarini nomma-nom ayt", didaktik o'yin, "Tez ishla ham yanglishma" o'yini, "Zinama – zina" o'yini.

O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, turli didaktik o'yinlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. Va u dunyoni va o'zligini anglashda, qiziqishlarini qondirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillatish va o'yin orqali bilim berish maqsadida yaratilgan.

Ta'limiy o'yinlar maktab o'qituvchilari tomonidan ijod qilingan. Bu o'yinlar maktab o'quvchilariga mo'ljallanadi. O'yin orqali bola jamoani tushunadi. O'zi bajarayotgan mashg'ulotga nisbatan ongli munosabatda bo'ladi. Har bir mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy diqqatini ishga soladi. O'yinda ilg'orlikka, g'alaba qozonishga intiladi. Maktab bola hayotida juda muhim o'rin tutadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati, maktab-maorif haqidagi bilimlarni egallaydi. Kecha o'yin bilan band bo'lib, erkin faoliyat ko'rsatib yurgan bolaning birdan maktabning ichki qonun-qoidalariga moslashishi, belgilangan tartib asosida mashg'ulotlarga o'z vaqtida qatnashishi oson kechmaydi. Shu tufayli kichik maktab yoshidagi bolalar o'yin bilan bog'liq darslarda juda faol qatnashadi. Biz o'qituvchilar buni hisobga olib, darslarga o'yin elementlarini kiritishimiz va undan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarda samarali foydalanishimiz lozim. Bugun maktabga ilk bor qadam qo'ygan o'quvchining kechagi mashg'uloti o'yin edi. Bolada boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan materiallarni o'zlashtirib olishga yordam beradigan epchillik, hozirjavoblik, voqealarni bir-biriga taqqoslash, sinchkovlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanish davri bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bilimlarning o'zlashtirib olinishiga erishish uchun ana shularga tayanish va uni parvarish qila borish lozim.

Tasavvur qiling, o'quvchi ma'lum amaliy va ruhiy tayyorgarlikdan keyin maktab o'quvchisi bo'ladi. Uning vazifasi o'zgaradi. Bir kecha- kunduzda o'rtacha 4 soat ta'lim oladi. Kechagi o'yinqaroq bola bugun 40-45 daqiqa davomida diqqatini bir joyga joylab o'qituvchi bilan muloqatda bo'ladi. O'quv axborotini qabul qiladi va idrok etadi. Ana shu vaqtda o'qituvchi loqayd, mas'uliyatsizlik qilsa, uning bu holati ota-onalarning holati bilan hamohang bo'lib qolsa, ota-ona ham yordam berishdan ojiz, nazorat qilishga "vaqti yo'q" bo'lsa, o'sha o'quvchilar bo'sh o'zlashtiruvchi, tartibsiz yomon o'quvchilarga aylanadilar. O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan fidokor o'qituvchi ana shu paytda o'quvchilarni qo'lga oladi, ularning mehrini, ishonchini qozonadi: o'quv mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otadi.

Chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'yinlarni juda berilib bajaradi va o'zi bajarayotgan ishidan katta qoniqish hosil qiladi. Dars jarayoniga o'yin elementlarining kiritilishi bolaning kundalik hayotida orttirgan ko'nikma va malakalarining ishga tushishi natijasida bola o'zini juda yengil sezadi, erkin harakat qiladi, bir oz dam ham oladi. Ilg'or o'qituvchilar bolalarga bu xususiyatlaridan kelib chiquvchi darslarni tashkil qilib ana shu imkoniyatdan samarali foydalanadi. Natija, albatta yomon bo'lmaydi. Negaki o'quvchi qiziqish bilan ongli ravishda darslarga qatnashsa, mashqlarni bajarishga faol ishtirok etsa, berilayotgan bilimni to'la o'zlashtirib oladi.

O'yinga bir-ikki nafar bolaning faol qatnashishi bilan chegaralanib qolmaslik zarur. Unga o'quvchilarning aksariyat qismi, iloji bo'lsa hammasi faol qatnashishi kerak. Chunki o'yin bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalaydi. O'yinlarni bolalar jamoa bo'lib bajarar ekan, uning barcha a'zolari faol qatnashgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Bu mashg'ulotda barcha o'quvchi bir maqsad yo'lida harakat qiladi. Hamma g'olib bo'lishga intiladi. Bunday holat har bir o'quvchining ma'suliyatini oshiradi.

Javob berayotgan o'quvchi o'z guruhining ishonchini oqlashga harakat qiladi. Noto'g'ri javob bersa, bolalar oldida o'zini noqulay sezadi, ayrim hollarda o'zini o'zi koyiydi. Keyingi o'yinlarga puxta hozirlik ko'radi. Bunday mashg'ulotlar bolalarni ko'proq o'qishga chorlaydi. G'oliblik nashidasini birgalashib surishga undaydi.

### **“Qo'shningni top” o'yini**

«Qo'shningni top» o'yinida birinchi sinf o'quvchilari «O'nlik» mavzusidagi bir xonali sonlar ketma - ketligida har bir (1 va undan boshqa) sonning har ikkala qo'shnisini topish bo'yicha amaliy ishlarni bajaradilar. O'qituvchi sonlar kassasidan biror (masalan, 5) sonni olib, o'quvchilarga ko'rsatib, o'quvchilarga bu (5) sonining

o'ng va chap qo'shnisi qanday sonlardan iborat bo'lishini so'rab, ularni topib, sonlar qatoriga qo'yish kerakligini so'raydi. Bu o'yinni sinf o'quvchilarining har biri bilan alohida yoki sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lib xam o'tkazishi mumkin. Bu o'yindan ko'zlangan asosiy ta'limiy maqsad, birinchi sinf o'quvchilariga bir xonali sonlar xaqidagi tasavvurlarini mustaxkamlash va ularni o'ngdan chapga va chapdan o'ngga qarab sanash ko'nikmalarini malakaga aylantirishdan iboratdir.

### **“Do‘konda” o‘yini**

«Do‘konda» o'yini ikkinchi sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning «100 lik» ichida hisoblash ko'nikma va malakalarini mustahkamlash ta'limiy va iqtisodiy tarbiyasini amalga oshirishga mo'ljallangan didaktik o'yindir. O'yindan ko'zlangan asosiy maqsad, ikkinchi sinf o'quvchilari bilan 100 sonini tashkil etuvchilari haqida umumiy tushunchalarni aniq tanlab olingan sonlar misolida tanlash usullari bilan tanishtirishdan iborat. O'yin davomida o'quvchilar do'kondan bir nechta o'yinchoqlar sotib olishi va ularning jami bahosi 100 dan oshib ketmasligi kerak. Bu o'yinning yechimi ko'p bo'lganligi uchun ham o'yin yanada hayajonli va qiziqarli bo'ladi.

### **“O‘xshashlarini nomma-nom ayt”**

«O'xshashlarini nomma-nom ayt», degan o'yinda to'rtinchi sinf o'quvchilari tekis geometrik figuralar ichida o'xshashlarini ajratib, ularning nomlarini aytish orqali geometrik figuralar haqidagi bilimlarning qanchalik to'g'ri va mustahkam ekanligini ko'rsatadilar. Masalan, stol ustidagi uchburchaklar, to'rtburchaklar, doiralar, yarim doira aylanalalar (yarim aylana), fazoviy figuralar va boshqa figuralar. O'quvchilar masalan, bu turtburchaklar qanday rangda va qanday kattalikda bo'lishidan qat'iy nazar, to'rtburchak, deb atalishini va ularning har biri o'z nomiga ega (kvadrat, rom, trapetsiya, parallelogramm, to'g'ri to'rtburchak), deb atalishini birgalikda topishadilar. O'yin davomida bolalarning yuzidan tabassum arimaydi va xar biri faol qatnashadi.

### **”Tez ishla ham yanglishma”o‘yini**

”Tez ishla ham yanglishma”o'yinining maqsadi o'quvchilarda tez hisoblash malakalarini shakllantirishdan iborat. O'yinovchilar soni cheklanmaydi. O'yin uchun sinf xattaxtasi, bo'r, har bir o'yinovchiga bir varaqdan qog'oz-qalam kerak bo'ladi. O'yin boshqaruvchisi xattaxtaga o'yinovchilar ishlay oladigan misolni shoshilmasdan ravshan qilib yozadi. Masalan ;  $2+3$  ni yozib bo'lgach, taxminan 3 soniya ketma-ket 3 marta xattaxtani taqillatadi. O'yinovchilar boshqaruvchilarning oxirgi taqillatishidan kech qolmay, faqat javoblarini o'z qog'ozlariga yozib

qo'yadilar. Kimki yozishga ulgurmasa, chizib qo'yadi. Har qanday misolni shunday usulda yozadilar va yechadilar. Gaplashgan o'quvchi o'yinda yutqizgan bo'ladi.

### **“Zinama – zina” o'yini**

“Zinama – zina” o'yinida o'quvchilarga misol yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Bolalar kartochkalarni zina ko'rinishida doskaga yopishtirishadi. Misollarni javobiga qarab ikkinchi misol boshlanadi, uni keyingi zinaga shu tariqa joylash kerak bo'ladi. Bolalar shu tariqa misolli kartochkalardan zina hosil qilishadi. Darslarda o'rganiladigan bilimlarni egallashda ham o'quvchilarning imkoniyatlari hisobga olinmay, darslarni bir xil uyushtirish mashg'ulotlarning zerikarli bo'lishiga olib keladi. Bunday darslar o'quvchilarda hech qanday qiziqish uyg'otmaydi. Pirovardida bu o'quvchilar faolligining susayishiga olib keladi. Shunday ekan, dars jarayonlari yuqoridagi singari turli didaktik o'yinlardan foydalanib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Darslarda o'rganiladigan bilimlarni egallashda ham o'quvchilarning imkoniyatlari hisobga olinmay, darslarni bir xil uyushtirish mashg'ulotlarning zerikarli bo'lishiga olib keladi. Bunday darslar o'quvchilarda hech qanday qiziqish uyg'otmaydi. Pirovardida bu o'quvchilar faolligining susayishiga olib keladi. Shunday ekan, dars jarayonlari yuqoridagi singari turli didaktik o'yinlardan foydalanib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Pedagogik texnologiya asoslari". J.G'. Yoldoshev, S.A. Usmonov. Toshkent 2004-y.
2. Azbarov Yu.T. Bolalarni sevish san'ati. T.: O'qituvchi. 1991.
3. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. -T.: TDPU. 2000.
4. Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi O'UM. 2017.
5. Ochilov, I. (2023). TARIX DARSLARIDA TAFAKKUR, KO'NIKMA VA MALAKALARNI HOSIL QILISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. Наука и технология в современном мире, 2(16), 43-46
6. Ochilov, I. (2022). XALQARO TURIZM TARIXI VA RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS GEOGRAFIK JIHATLARI. Science and innovation, 1(C6), 228-231.

7.Ochilov, I. (2022). SPECIFIC GEOGRAPHICAL ASPECTS OF THE HISTORY AND DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL TOURISM. Science and Innovation, 1(6), 228-231.

8.Omongaldi o'g'li, O. I. (2023). QADIMGI DAVRLARDAGI KO'CHMANCHI SAK, MASSAGET QABILALARI HAQIDA MUSHOHADALAR. IQRO, 2(2), 597-600.

9.Iskandar, O. (2022). XIVA TARIXI VA RIVOJLANISHIDA TURIZMNING AHAMIYATI. PEDAGOG, 5(6), 327-329.

10.Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 794-798.

11.Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.

12.Omongaldi o'g'li, O. I. (2022). QADIMGI XORAZM SIRLI QAL'ALARI. PEDAGOGS jurnali, 10(4), 182-185.

13.Omongaldi o'g'li, O. I. (2023). O'RTA OSIYODA TARIXIY BILIMLARNING TARAQQIYOTI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(3), 9-15.

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARNING YOZMA VA OG‘ZAKI SAVODXONLIGINI OSHIRISH USULLARI

Guliston Davlat Universiteti  
Psixologiya va iltimoiy fanlar fakulteti  
3-bosqich talabasi  
**Rajabova Munisa Aminboy qizi**

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang‘ich sinf darslariga qo‘yilgan talablar, shuningdek, darsda qo‘llaniladigan interfaol metodlar xususida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** islohot, “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Ven diagrammasi”, “Guruhlar bilan ishlash”, “6x6x6”.

Bugun ta‘lim tizimida hayotga tadbiiq etilayotgan islohatlarning barchasi tub mazmun-mohiyati bilan yoshlarimizning yurt ravnaqi uchun fidoiy, izlanuvchan bo‘lib yetishmog‘iga qaratilgan.

Boshlang‘ich ta‘lim uzluksiz ta‘limning murakkab, o‘ziga xos, shu bilan birga, mustaqil va majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Boshlang‘ich ta‘lim DTS ta‘lim mazmuni negizini o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini hamda o‘quvchilar tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni o‘zida ifodalaydi.

Ta‘lim sohasidagi o‘zgarishlar tufayli darsning shakli va mazmuni ta‘sirchanligi, samaradorligi, baholash mezonlari ham o‘zgardi. Dars samaradorligini oshirish mezonlaridan biri-darslarda interfaol usullarni qo‘llashdan iborat.

Ma‘lumki, ta‘limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma‘naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi,

shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar" metodi, "Sinkveyn", "BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Rolli o'yin", FSMU, "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor", "Zigzag" "Oxirgi so'zni men aytay" kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan asosiy fanlar bular ona tili, o'qish va matematika darslaridir. Biz bu darslarning yanada samaradorligini oshirish, fanlarni o'qitishning ilg'or texnologiyalarni yanada takomillashtirish maqsadida jahon tajribasida sinalayotgan usullardan to'laonli foydalanishga erishishimiz zarur.

O'qituvchining turli fanlarni o'qitishdan maqsadi o'quvchilarning nutq madaniyatini, nutq ko'nikmalrini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi nutqi o'quvchilar uchun namunadir. O'quvchilarning nutqi ravon, tushunarli bo'lishi uchun eng avvalo uning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga e'tibor berih zarur. Bolalar nutqini rivojlantirishda o'qish va ona tili fanining ahamiyati katta. Shuning uchun "O'qish kitobi" da "Ertaklar-yaxshilikka yetaklar" bo'limi berilgan. Unga kiritilgan ertaklar bolalarni obod-axloqqa o'rgatishi, ma'naviy juhatdan rivojlanishi bilan muhim ahamiyatga egadir. Masalan, "Ur to'qmoq" ertagidagi dehqon va boy obrazlari o'quvchilar ongida yaxshi va yomondan nafratlanish, undan yiroqlashish kerakligi haqida tasavvur hosil qiladi. Maqtanchoqlik, adolatchilik, ochko'zlik juda yomon odat ekanligi, saxiylik, do'stga mehribon bo'lish, rostgo'ylik insonning ma'naviy yuksalishga yordam berishi uqtiriladi.

Bolalarda ikkita jadval tuzishga tayyorlanishlari aytiladi. Birga yaxshilikka doir so'zlar, ikkinchisiga esa uning aksi bo'lgan so'zlar yozish ta'kidlanadi. O'quvchilar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhdagi bolalar mehribon, saxiy, shirinso'z, yoqimli, go'zal, chiroyli, mehnatkash, e'tiborli, kamtar, aqlli, bilag'on kabi so'zlar topsalar, ikkinchi guruh bolalar yomon, xunuk, qo'pol, yolg'onchi, ayyor, to'polonchi, tartibsiz, xasis, qizg'anchiq kabi so'zlarni aytadilar.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda fanlar

ularning yaqin ko‘makchilardan biriga aylanadi. Quyida o‘quvchilar savodxonligini oshirishga doir metod keltirib o‘tamiz.

### **“Videotopishmoq” metodi**

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: o‘quvchilar e'tiboriga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi; o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi; jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi; o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O‘quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o‘z fikr mulohazalarini bildirishadi. Masalan, “Elektr jihozlari” (1-sinf), “Yil fasllari” (2-sinf) kabilar asosida o‘quvchilarga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi. Bu metodni 2-sinfda o‘quvchilarning unli va undosh tovushlar haqidagi bilimlarini sinash, uni mustahkamlash maqsadida ham qo‘llash mumkin.

Masalan, ekran orqali unli tovushlar ko‘rsatiladi. Galma-galdan shu tovush bilan boshlanadigan so‘zlarni ifodalaydigan rasmlar ko‘rsatiladi. O‘quvchilar rasmlardagi narsa, buyum nomlarini daftarlariga yozadilar. Bunda o‘quvchilarning xotiralari mustahkamlanadi, so‘z boyligi oshadi. Og‘zaki va yozma savodxonligi oshadi. Bugungi kun o‘qituvchisi yangilikka intiluvchan, uni to‘g‘ri qabul qilib o‘z o‘quvchisiga yuksak darajada yetkaza olish zarurdir. Darslarni yuqori darajada tashkil qilish va o‘tkazish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi pedagogik jihatdan mahoratga ega bo‘lishi zarur. Shundagina bunday o‘qituvchi yosh avlodni har jihatdan yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalay oladi va unda eng oliy insoniy fazilatlariga ega yosh avlod buyuk kelajagimiz egalari hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Azbarov Yu.T. Bolalarni sevish san’ati. T.: O‘qituvchi. 1991.
2. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. T.: TDPU. 2000.
3. Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang‘ich ta'lim fanlarini o‘qitish metodikasi O‘UM. 2017.

4. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. -T.: TDPU, 2013

5. Ochilov, I. (2023). TARIX DARSLARIDA TAFAKKUR, KO'NIKMA VA MALAKALARNI HOSIL QILISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. Наука и технология в современном мире, 2(16), 43-46

6. Ochilov, I. (2022). XALQARO TURIZM TARIXI VA RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS GEOGRAFIK JIHLTLARI. Science and innovation, 1(C6), 228-231.

7. Ochilov, I. (2022). SPECIFIC GEOGRAPHICAL ASPECTS OF THE HISTORY AND DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL TOURISM. Science and Innovation, 1(6), 228-231.

8. Omgaldi o'g'li, O. I. (2023). QADIMGI DAVRLARDAGI KO'CHMANCHI SAK, MASSAGET QABILALARI HAQIDA MUSHOHADALAR. IQRO, 2(2), 597-600.

9. Iskandar, O. (2022). XIVA TARIXI VA RIVOJLANISHIDA TURIZMNING AHAMIYATI. PEDAGOG, 5(6), 327-329.

10. Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 794-798.

11. Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.

12. Omgaldi o'g'li, O. I. (2022). QADIMGI XORAZM SIRLI QAL'ALARI. PEDAGOGS jurnali, 10(4), 182-185.

13. Omgaldi o'g'li, O. I. (2023). O'RTA OSIYODA TARIXIY BILIMLARNING TARAQQIYOTI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(3), 9-15.

## JADIDCHILIK HARAKATINING TURKISTON IJTIMOIIY-SIYOSIY VA MADANIY HAYOTIGA TA'SIRI

**Yusupova Laylo Umidbek qizi**

Guliston davlat universiteti

Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining zabt etilgandan keyin yurtimizda jadidchilik harakatining turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga ta'siri va uning ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik, Turkiston, ma'naviyat, ijtimoiy-siyosiy, ilm.

XIX asrda O'rta Osiyoda uchta mustaqil davlatlar mavjud edi ular Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklaridir. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining zabt etilishi ushbu hududning tanazzulga yuz tutishiga, jahonning rivojlangan davlatlaridan har sohada ortda qolib ketishiga milliy va madaniy sohalarning toptalishiga olib keldi.

Ta'lim sohasida ham imperiya manfaatlaridan kelib chiqqan holda mahalliy aholini savodsizlikda, qoloqlikda tutib turishga qaratilgan siyosat olib borildi. Turkistonda mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik harakatlari bilan bir qatorda mahalliy aholining aksariyat qismi o'zlikni saqlab qolish, milliy urf odatlar, ta'lim va madaniyatni asrash va rivojlantirishga harakat qilishdi. Rossiyaning harbiy jihatdan ustunligi mahalliy aholini mustaqillik uchun jang qilishiga imkon bermadi. Jamiyatning bir guruh ziyolilari jamiyatni ma'rifatli qilmasdan turib mustaqillikni qo'lga kiritib bo'lmaydi, deb hisoblaganlar. O'lka milliy ziyolilarining jamiyatni yangilashga va isloh etishga qaratilgan harakati jadidchilik nomi bilan maydonga chiqdi.

Jadidlar O'rta Osiyoda taraqqiyparvarlar rivojlangan jamiyat yaratishdek o'z g'oyalarini amalga oshirishda mutaassiblik, loqaydlik, qoloqlikka qarshi kurash olib borishga alohida ahamiyat berganlar. Ular bu vazifalarni amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlarni ustuvor vazifa deb bilganlar: o'lkada yangi usul maktablar tarmog'ini kengaytirish, iqtidorli o'quvchilarni chet elga o'qishga yuborish, turli ma'rifiy teatr truppalarni tuzish, gazeta va jurnallar chop etish va albatta xalqning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy ongini yuksaltirish yo'li bilan Turkiston milliy demokratik davlat qurish edi.

Turkistonda milliy demokratik davlat qurish edi. Ilg'or milliy ziyolilar faoliyatining muhim yo'nalishi yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish edi. Bu maktablar bolalarning tez va oson savodxon bo'lishlarini ta'minlabgina qolmay, balki ularda fanatizm va konservatizmdan xoli bo'lgan yangi dunyoqarashning shakllanishiga ham xizmat qilar edi. Ular ham Sharq, ham G'arb madaniyati yutuqlarini egallashga intildilar, o'qidilar va o'zgalarni ham shunga da'vat etdilar. Ma'rifatparvarlar xorijga chiqib, turli mamlakatlardagi madaniyat va ta'lim taraqqiyoti da rajasini ko'ra oldilar, ularni solishtirdilar va bu zehni yoshlarda jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga keltirish istagi paydo bo'ldi. Natijada jadidlarning diqqat markaziga birinchi bosqichda ta'limni isloh etish vazifasi qo'yildi. Yangi usul maktablarida ta'lim jarayonida Yevropa standartlari mezon qilib olingan edi. Arifmetika, tarix, geografiya, tabiatshunoslik asoslari singari fanlar bilan bir qatorda islom ta'limoti asoslarini o'rganishga ham katta e'tibor berilgan. Yangi darsliklar yaratish masalasi juda dolzarb bo'lib turar edi. Dastlabki paytlarda Turkistondagi yangi usul maktablarining ko'pchiligida Qozon va Orenburgda nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalanildi. Toshkent, Buxoro, Samarqand, Andijon, Qo'qon, Xiva shaharlari jadidchilik harakati markaziga aylandi. Bu shaharlarda ochilgan madaniy – ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalar Turkistonda jadidchilikning keng yoyilishiga olib keldi.

Rossiyaning Jadidlar mafkurasiga ko'ra islom dini shaxsning ma'naviy kamoloti va jamiyat rivojida muhim o'rin tutgan. Ular ushbu vazifani hal etmay turib, boshqa muammolarni bartaraf qilishning iloji yo'qligini anglab yetganlar. Ana shu maqsadda 1909-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy, 1910-yilda Abdulla Avloniy, 1915-yilda Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat tomonidan islom tarixiga oid asarlar yaratildi. Ushbu asarlarda ular islomning paydo bo'lishi va tarqalishining eng muhim bosqichlarini yoritib berdilar, shuningdek, islom aqidalarining noto'g'ri talqin qilinishiga qarshi chiqdilar. Turkiston taraqqiyparvarlari tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilgan chora-tadbirlar qatorida islom dini me'yorlarini, Qur'on oyatlari va hadislarni, shariat hukmlarini to'g'ri talqin etish, ta'lim tizimini isloh qilish, uni zamon talablariga moslashtirish kabilar bor edi. Milliy taraqqiyparvarlar musulmon ruhoniylarining fanga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan vakillarini qoraladilar. Taraqqiyparvarlar islom dini har bir musulmon erkak va ayollarning bilimga ega bo'lishini ularning zimmasiga burch qilib qo'yganligini keng targ'ib qildilar. Jadidlar ilm-fanni taraqqiyotning va farovonlikning asosiy yo'naltiruvchi kuchi hamda jaholatga qarshi kurashning birdan bir vositasi deb hisobladilar. Ularning fikriga ko'ra chin musulmon bo'lish uchun diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlarni, ayniqsa, matematika, fizika, kimyo, tibbiyot, tarix va boshqa

fanlarni bilishlari zarur deb hisoblangan. Buni muqaddas Qur'on oyatlari va hadislar asosida tasdiqladilar. Jadidlarning islomga oid g'oyalari ularni islomning asosiy ta'limotini o'zgartirishga intilganlar, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Sababi ular o'z faoliyatlarida Qur'onni ham, umuman, butun islom ta'limotini ham to'g'ri izohlab berganlar. Ularning barchasi islom diniga va musulmon an'alariga sodiq edilar. Ular islomga putur yetkazadigan urf-odatlariga, jamiyat rivojiga va taraqqiyotiga xalal beradigan salbiy ko'rinishdagi holatlarga qarshi chiqdilar. Jadidlar johillikni tugatishga, omma orasida taraqqiyparvar g'oyalar uyg'otishga intildilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Asqarov. O'zbekiston tarixi ( 1917-1993) yillar. 1994
2. Soyibjon Tillaboyev O'zbekiston tarixi ( XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari) 2019
3. Temirov F.U O'zbekiston Tarixi Ishchi dasturi 2016. Ahmedov, Sirojiddin; Rajabov, Qahramon (2000-2005).
4. "Jadidchilik". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
5. Alimova D., Djadidizm v Sredney Azii. Puti obnovleniya, reformi, borba za nezavisimost, Toshkent, 2000;
